

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

o`zbek tili yo`nalishi

13.41-guruh bitiruvchisi Ikromova Gulhida Axmadillo qizining

**“Sharof Boshbekov dramalarining til xususiyatlari”**

mavzusidagi

**BITIRUV-MALAKAVIY**

**ISHI**

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari  
doktori, professor Sh. Iskandarova

FARG`ONA – 2017

## MUNDARIJA

<b>Ishning umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
------------------------------------	----------

### BIRINCHI BOB

<b>Sharof Boshbekov dramalarining fonetik va leksik xususiyatlari .....</b>	<b>9</b>
1.1. Sharof Boshbekov dramalarida fonetik vositalarning o‘rni.....	9
1.2. Sharof Boshbekov dramalarining leksik xususiyatlari.....	16
1.3. Sharof Boshbekovning so‘z qo‘llash mahorati.....	27
<b>Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....</b>	<b>30</b>

### IKKINCHI BOB

<b>Sharof Boshbekov dramalarining grammatik xususiyatlari.....</b>	<b>32</b>
2.1. Sharof Boshbekov dramalarida morfologik birliklarning qo‘llanilishi.....	32
2.2. Sharof Boshbekov dramalarida sintaktik birliklar uslubiy vosita sifatida..	44
<b>Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....</b>	<b>55</b>

<b>Xulosa.....</b>	<b>58</b>
--------------------	-----------

<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>64</b>
--	-----------

## Ishning umumiy tavsifi

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek tilining ravnaq topishiga imkoniyat yaratib berdi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimizni, ma’naviy qadriyatlarimizni butkul yo‘qotib qo‘yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklashga keng yo‘l ochib berildi”.<sup>1</sup>

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarini olib borishga e’tibor yanada kuchaydi. Shu sababli til birliklarining semantik strukturasi tekshirish, uslubiy-semantik ma’nolarini chegaralash, bu ma’nolarning nutqda reallashuvida til vositalarining o‘rnini belgilash kabi qator masalalar turli ilmiy-tekshirish ishlarining o‘rganish obyektiga aylandi. Xususan, muayyan so‘z san’atkorining tildagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklardan betakror uslub yaratish vositasi sifatida foydalanishi, takrorlanmas uslub yaratishdagi o‘ziga xosliklar badiiy matnni stilistik aspektda o‘rganishga qiziqishni oshiradi.

Ma’lumki, Sharof Boshbekov o‘zbek adabiy-badiiy tili rivojiga katta hissa qo‘shgan yozuvchidir. Ayniqsa, uning dramalarida o‘zbek tilining jozibasi, ohangdorligi, ifodaliligi, ta’sirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. Adib asarlari til xususiyatlarining o‘rganilishi o‘ta muhim va o‘ziga xos hodisa ekanligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi Sharof Boshbekovning o‘ziga xos so‘z qo‘llashi, badiiy til mahorati, o‘zbek adabiy tili rivojlanishi uchun qilgan xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutildi:

– tilshunoslikda drama tili va uning belgilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish;

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 71.

- Sharof Boshbekov dramalarida matnning badiiyligini ta’minlovchi fonetik, leksik, grammatik vositalarni aniqlash;
- fonetik, leksik, grammatik vositalarning asar badiiyligini oshirishga qilgan ta’sirini belgilash;
- Sharof Boshbekovning so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos mahoratini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti.** Tadqiqotda Sharof Boshbekovning «Temir xotin», «Eshik qoqqan kim bo’ldi?», «Tushov uzgan tulporlar», «Charog’bonlar» kabi dramalari tahlil obyekti sifatida tanlab olindi.

**Tadqiqot metodologik asoslari.** Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektikaning umumiylik-xususiylik, shakl-mazmun tamoyillari tanlandi. Ishda lingvopoetik, uslubiy, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

- drama tili va uning belgilari masalasi o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba tadqiq qilindi;
- Sharof Boshbekov dramalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari birinchi marta maxsus o‘rganildi;
- Sharof Boshbekovning so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos mahorati ochib berildi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalar ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikning tegishli muammolarini ma’lum ma’noda oydinlashtirishga ko‘maklashadi. Tadqiqot materiallaridan filologiya sohasida o‘qiyotgan talabalar kurs ishlari yozishda, “Badiiy matning lisoniy tahlili” faniga bog‘liq o‘quv kurslariga tayyorlanishda qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

BMI xulosalari Sharof Boshbekov mahoratini ochib beruvchi mavjud lisoniy nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va umumiy hajmi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat va 65 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. DRAMA TILI VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI

## 1.1. Sharof Boshbekov dramalarida fonetik vositalarning o'rni

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bu yo'ldagi segment va supersegment vositalardan to'g'ri va unumli foydalanib, nutqni yanada ravon hamda jozibador qilishlikni taqozo qilmoqda.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Segment birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kirar ekan, bunday birliklar morfema va so'zlar tarkibida ketma-ket keladi.

Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar esa suprasegmental fonetika yoki "prosodika" deyiladi. Supersegment elementlarga bo'g'in, urg'u va ohang kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi<sup>1</sup>. Shuning uchun ham tilshunos olim M.Mirtojiev bu hodisalarni tahlil qilib, ustama hodisa deb nomlagan. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan supersegment vositalardan biri intonatsiyadir<sup>2</sup>.

Ma'lumki, badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki badiiy asarda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. Asosan, she'riyatda alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi.

---

<sup>2</sup> Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996, 20-22-b.

Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda "aynan" ifodalash imkoniyati cheklangan.<sup>3</sup> Ammo, talaffuzda hamda badiiy asarlarda bayon muvofiqligiga qarab fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini jalb qilgan.

Ma'lumki, tovushlarga, ayniqsa, harflarga bu tarzda ma'no yuklash, albatta, jiddiy ilmiy asoslarga ega emas. Yozuvchi badiiy asariga, ya'ni asari qahramonlari nutqiga ruhiy holatni berish, yozuvda ifodalashda bir qancha murakkabliklar kelib chiqishi mumkin. Asar qahramonlari ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, zavqlanish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuldan, ya'ni **fonografik vositalardan** foydalaniladilar.

Fonetik birliklarning uslubiy imkoniyatlaridan asarning badiiyligini ta'minlashda keng foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, ohang muhim rol o'ynaydi. Ohangning vazifalaridan biri so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash, shu jumladan ma'no kuchaytirish, bo'rttirishdir. Bu haqda tilshunos olim A.Abdullaevning ishlarida atroflicha ma'lumot berilgan.<sup>4</sup>

Nutqda fonetik usul bilan yuzaga chiqadigan ustama ma'noli so'zlarni kuzatish mumkin. Bunday fonetik vositalar nutqning ohangi va mazmun talabidan kelib chiqib, tabiiy ravishda talaffuz qilinadi.

Tilshunos olim Ma'rufjon Yo'ldoshev lingvopoetikaga oid tadqiqotlarida fonografik vositalarni farqlashni bir qancha turlarga bo'lib o'rganganlar. Masalan:

**I. Unli harflarni birdan ortiq yozish orqali.** Bunda unli harf cho'zib talaffuz qilinishi tushuniladi. Qahramonning voqelikka bo'lgan munosabati unlini cho'zish orqali oydinlashadi. Tilshunos A. Abdullayev bunday holatning bo'lishi ilmiy

---

<sup>3</sup>Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -Toshkent, 2007, 23-b.

<sup>4</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлининг ифодаланиши.-Тошкент. 1987. 8-б

adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanishini ta'kidlaydi. Unli harflarni orttirish asar badiiy qahramonining ruhiyatini, holatini tez va tushunarli tarzda aniqlab olishga ko'maklashadi. Unli tovushni qaysi vaqtda va qaysi holatda orttirish yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Ba'zida mana shunday holatlar asarning kulminatsion nuqtasi, tugunning yechimi, asarning asosiy g'oyasiga asos bo'ladi. Bunday holat yozuvchi dramalarida juda ko'p uchraydi.

Yozuvchi dramada unli tovushlarni cho'zish orqali personaj nutqida qator konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Ma'lumki unlilar sof ovozdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ularda ohangdorlik kuchli bo'lib, ularni istagancha cho'zib talaffuz qilish imkonini beradi. Bu esa asar qahramoni ruhiyatidagi qator o'ziga xos xususiyatlar, ichki kechinmalar, his-hayajon kabilarni ochib berishga yo'l ochadi.

Sharof Boshbekov dramalarida ham personajlar nutqida unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali qahramon ruhiyatidagi qator konnotativ ma'nolar hosil qilingan.

### **1. Harakatning davomiyligi, samimiyligi, o'zaro yaqinlik kabi ma'nolar ifodalanadi.**

*M: Pirmat. Rahmatilla bilan **bi-i-ir** tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim.*<sup>5</sup> (38)

Yuqoridagi misolga e'tibor qiladigan bo'lsak, yozuvchi "i" unlisini cho'zib talaffuz qilish orqali personaj nutqidagi samimiylilik, o'zaro yaqinlik kabi ma'nolarni yuzaga chiqarganini ko'ramiz. Qiyoslang:

*Pirmat. Rahmatilla bilan **bir** tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim // Pirmat. Rahmatilla bilan **bi-i-ir** tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim.*

Ko'rinadiki, ikkinchi gapdagi samimiylilik, o'zaro yaqinlik kabi ma'no nozikliklari birinchi gapda kuzatilmaydi.

### **2. Xitob-ta'kid ma'nolari ifodalanadi.**

---

<sup>5</sup> Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo'ldi? –T.1989.  
Tubandagi misollar shu asardan olindi.



*M: Olim. Yo'-o'-o'q, , bu krugliy data, buni gastronomga tushib chiqish bilan nishonlab bo'lmaydi. (132)*

Yuqoridagi misolda “o” unlisini cho'zish orqali xitob-ta'kid ma'nolari ifodalanadi.

### **3. Ta'kidlash, piching, kesatish ma'nolari ifodalanadi.**

*M: Qo'chqor. Ho-o, qarorni ham bilarkanmi? (165)*

Yuqoridagi misolda “o” unlisini cho'zish orqali muallif Qo'chqor nutqidagi kesatish, piching, kalaka, mensimaslik kabi ma'nolarni yuzaga chiqargan.

### **4. Xursandchilik, kayfiyatning yaxshiligi, shodlanish kabi ma'nolar ifodalanadi.**

*M: Nozik. Bu-y-yū, manavi gu'llarни-u-u.Қараб кўз қувонади. (220)*

Ko'rib o'tilgan misolda personajning nutqiga xos bo'lgan shodlanish, xursandchilik kabi ekspressiv ma'nolar “u” unlisini cho'zish orqali yuzaga chiqarilgan.

### **1. Xayratlanish, taajjub, esankirash ma'nolari ifodalanadi.**

*M: Qo'chqor (hayratdan o'g'zi ochilib). O-o-olimtoy, buyam haligi magnitafonday gap ekan-da? (173)*

### **2. Voqelikka norozilik ma'nosi ifodalanadi.**

*M: Pirmat. Men bir nima dedimmi? Indama-a-ay o'tiribman-ku! (137)*

### **3. Buyruq, xitob, po'pisa ma'nolari ifodalanadi.**

*M: Saltanat. Mehmon bo'lsa mehmonga o'xshab ji-i-im o'tirsin, menga naqa ko'zini lo'q qilmasdan. (189)*

### **4. Taklif, andisha, istihola ma'nolari ifodalanadi.**

*M: Shu-u-u, Alomatxon ro'zg'orga sal munday... nima deydi... Qarashib tu-u-ursa devdim-da, ukam. (177)*

### **5. Ma'noni kuchaytirish ma'nosini ifodalaydi.**

*M: Tessa. Agar o'sha oq otlar ke-e-eng daladay elib yursa,*

*bilasanmi, anday go‘zal bo‘lardi? (211)*

**6. Harakatning davomiyligi ma‘nosi ifodalanadi.**

*M: Olim. Keyin kallani bir joyga qo‘yi-i-ib o‘ylaysan. (132)*

Yuqoridagi misollarga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, ularda keltirib o‘tilgan so‘zlarning bunday talaffuz qilinishi orqali anglashilgan qo‘shimcha ma‘no nozikliklari kitobxonga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa asarning ta‘sirchanligini yanada oshiradi.

Yuqoridagi misollardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda barcha unililar cho‘zib talaffuz qilingan. Bu cho‘ziqlik talaffuzda ohang, yozuvda esa unililarni takrorlash bilan birga ular orasiga chiziqcha qo‘yish orqali beriladi. Matnda unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilingan so‘zlarda qahramonning ichki kechinmasi, ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi o‘z ifodasini topgan. Bu esa badiiy asarning ekspressivligini yanada oshirgan.

**So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish.** Og‘zaki nutqda turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar, asosan o‘zlashma so‘zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so‘zlovchining o‘zlashgan so‘z imlosini to‘g‘ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi,<sup>6</sup> deb izohlash mumkin.

Badiiy asarlarda, shu jumladan, dramalarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi. Sharof Boshbekov ham o‘z dramalarida qahramon xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarni ochib berishda yuqoridagi usuldan mahorat bilan foydalangan. Uning “Temir xotin” dramasida o‘zlashgan so‘zlar personaj nutqida ikki xil shaklda qo‘llangan.

*M: Qumri. “Ras”, “duva”, “vzali” deyishdi.*

*Qo‘chqor. Nima-li?*

*Qumri. “Vzali”.*

---

<sup>6</sup>Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –T.1998

*Qo‘chqor. “Vzyali”, o‘qimagan! (166)*

*Qo‘chqor (og‘rinib). O‘qigan, olim odamsan, ko‘tarda past bo‘lsa! “pro-gres-mrogres” qilasan bu erga kirib olib! ( 168)*

Yuqoridagi “vzali”, “pri-gres-mrigres” so‘zlari asli “vzyali”, “pragress” o‘zlashma so‘zlarining personaj nutqida noto‘g‘ri talaffuz qilingan shakli bo‘lib, aynan o‘sha qahramonni individual tanishtirish, uning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish maqsadida qo‘llangan.

Birinchi misolda Qo‘chqor xotini Qumrining “raz”, “dva”, “vzyali” so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qila olmasligi ustidan kulgan bo‘lsa, ikkinchi misolda esa uning o‘zi Olimjon tilidan aytilgan “progress” so‘zini to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi. Bu esa Qo‘chqorning ham, Qumrining ham oddiy qishloq kishilari, chapani, omi odam ekanliklarini ko‘rsatadi.

Sharof Boshbekov qahramon nutqini individuallashtirish maqsadida o‘zlashgan so‘zlarni quyidagi usulda ham qo‘llagan.

*M: Olimjon. Ha, **prinsip** deyarli bir xil.*

*Qo‘chqor. **Nima-sip?***

*Olimjon. **Prinsip.** (169)*

*Alomat. Tashqi olam bilan faqat **manusonik** metodda aloqa qilaman.*

*Qo‘chqor. **Nima-so‘nik?***

*Alomat. **Manusonik.** (170)*

Yuqoridagi misollarga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, muallif “**prinsip**”, “**manusonik**” so‘zlarini Qo‘chqor nutqida “**nima?**” so‘roq olmoshi bilan birgalikda qo‘llash orqali, asosan, emotsional-ekspressiv maqsad ko‘zlagan, ya’ni ular orqali faqat Qo‘chqor xarakterigagina xos jihatlarini ochib bergan. Ular orqali kitobxon Qo‘chqorning ilmi xaminqadar bo‘lgan, oddiy, sodda qishloq traktorchisi ekanligini favqulodda tez anglab oladi.

Personaj nutqida noto'g'ri talaffuz qilingan so'zlar xuddi shevaga xos so'zlar, argo va jargonlar, varvarizm va vulgarizmlar kabi badiiy asar koloritini aniqroq tasvirlashga hamda qahramon nutqini iloji boricha xalqqa yaqin bo'lgan, xalq tushunadigan tilda ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan fonografik-stilistik vositalar badiiy tasvirda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular narsa, hodisa va voqealar haqida tushuncha ifodalash bilan birga so'zlovchining turli emotsional-ekspressiv holatini, uning voqea-hodisalarga turli xil munosabatini yanada aniqroq, ravshanroq va o'zgacha ottenka orqali ifodalashga xizmat qiladi. Fonografik-stilistik vositalardan o'rinli foydalanish esa badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

## 1.2. Sharof Boshbekov dramalarning leksik xususiyatlari

Sharof Boshbekov dramalarini leksik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, adib dramalarining badiiyatini ochib berishda noadabiy qatlamga oid birliklarning o'zni katta ekanligini guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, bu qatlamga oid leksika qo'llanish doirasining chegaralanish xarakteriga ko'ra uch turga bo'linadi. Bular:

- 1) dialektal leksika;
- 2) terminologik leksika;
- 3) jargon va argolar.

Shundan kelib chiqqan holda biz ularning barini adib dramalari misolida ko'rib chiqamiz va ularning qay maqsadda qo'llanilganini o'rganamiz.

***Dialektizmlar.*** Ma'lum bir hududda, territoriyada yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan adabiy til leksikaga kirmaydigan so'zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Ma'lum dialekt va sheva vakillarigagina qo'llaydigan bunday so'zlar **dialektizmlar** deb yuritiladi.<sup>7</sup>

O'zbek tilining dialektal qatlami nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u o'z ichiga bir qancha sheva va dialektlarni oladi.

Bu sheva va dialektlarning har biri o'ziga xos fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan, shuningdek, o'zaro farqlanadi.

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi, avvalo, so'zning talaffuzida ko'rinadi. Masalan: **gurgut-gugurt, bala-bola, yuzum-uzum, yig`namoq-yig`moq, buginmoq-bekinmoq, chig`di-chiqdi** kabi.

Badiiy adabiyotda mahalliylikni berish, personajlar nutqini individallashtirish uchun dialektizmlardan foydalaniladi. Lekin bunday qo'llash bilan dialektal so'zlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi.

---

<sup>7</sup> Xudoyqulova Sh. E. Vohidov she'riyatida dialektizmlar. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. -№2. -T.:TDPU, 2008. -B.98-99.

Nozik. **O'zimam** shunaqa ahvolga tushasiz deb **o'ylovdim** (157)

M: Pirmat. Endi-i **munday**. Gaplaringni indamay o'tirib eshitdim.

Qani, menga aytinglar-chi, Rahmatilla deganlaring qanaqa odam edi? (155)

Qo'chqor... Chalasavod! Rasmi yo'q ekan deb **gazit** o'qimaydi. (158)

Ko`rib o`rganlarimiz bu misollarda grammatik va leksik usullar bilan dialektal birliklar hosil qilingan. “**O'ylamovdim**” so`zi grammatik usulda, “**munday**”, “**gazit**” so`zlari leksik usulda hosil qilingan bo`lib, ular “**o'ylamagan edim**”, “**bunday**”, “**gazeta**” so`zlarining dialektal variantlaridir. Bundan tashqari adabiy tilga nisbatan dialektlarning lug`at tarkibi birmuncha o`zgacharoqdir. Chunonchi, mahalliy dialektlar lug`atida fan, san`at va murakkab texnikaga oid maxsus terminlar kam, deyarli yo`q bo`ladi, dialektlardagi ba`zi so`zlar esa adabiy tilda butunlay bo`lmasligi mumkin. Bunday so`zlar shu sheva vakillari nutqida ishlatiladi.

O`zbek shevalari lug`atida yana shunday so`zlar uchraydiki, bular adabiy tilda boshqa so`z bilan ifodalanadi. Mahalliy kaloritni berish zaruriyati bilan qo`llangan bunday dialektizmlarning qavs ichida adabiy tildagi variantini berish maqsadga muvofiqdir.

M: Qo'chqor. Uyda bo'lsa tokqaychisini berib tursin, **devdim**. Ishkom **jaa** tarvaqaylab ketibdi. (164)

Olimjon. Kim bor? Qo'chqor aka! Turobjon! Iye, eshik ochiq-ku... **Kennoyi**. (167)

Adabiy tilning ayrim dialektlar lug`aviy birliklari hisobiga boyib borishi tillar taraqqiyotida qonuniy bir holatdir. Hozirgi adabiy nutq lug`atning katta bir qismi ham aslida dialektlarga xos deb qaralishining sababi bunday lug`aviy birliklarning umumlashib ketganligidadir.<sup>8</sup>

Dialektizmlarni quyidagi holatlarda adabiy nutqqa olib kirish mumkin: agar u

---

<sup>8</sup> O`sha manbaa, 98-99-b

yoki bu mahalliy tushuncha umumnutq qatlamda aniq nomga ega bo`lmasa yoki uning shevadagi atamasi leksik ma`no ottenkasi bilan stilistik bo`yog`i bilan umumtildagi so`zdan farqlanib tursa, uning adabiy nutqqa kirishi to`g`ridir.

*M: Qulmat (chiqib ketib ichkaridan). Ertaga Rahmatilla bosh, biz yonbosh-shahar aylanamiz. Hammayoq o'zgarib ketgan hozir. Yerning ustidayam **poiz** yuradi, ostidayam. (123)*

Biror dialektal so`zning adabiy nutqqa ko`chish hodisasi bilan dialektal so`zlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar o`z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy kaloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo`lgan holatning ma`lum mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so`zlardan foydalanishlari mumkin.

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi adabiy til bilan shevalar o`rtasidagi munosabatlarning bir-biriga ta`sir qilish darajasiga bog`liq. Shuning uchun dialektizmlarning badiiy asarda qo`llanishi hamda ularning adabiy tilga o`tish-o`tmasligini konkret tarixiy sharoitlarga ko`ra izohlash zarur.

*M: Pirmat. **Lo'kkavo'yga o'tirayotib sho'pir** bola "qayoqqa hayday?" desa, **indalmi** tamshanib qolding- ku. Keyin men aytdim. " Kunbotishga hayda" deb. (152)*

Yozuvchilar o`z asarlarida sheva so`zlardan foydalanishga asosiy sabab, o`sha personaj yoki obrazning qanday xarakterga ega ekanligini, qaysi voqa farzandi ekanligini aniq, tiniq bilib olsa bo`ladi. Bu ham asar qimmatini yanada oshiradi. Asar qahramonlari shu xususiyati bilan o`quvchi yodidan hech qachon ko`tarilmaydi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma`nodosh, shakldosh, zid ma`noli, ko`p ma`noli, tarixiy va arxaik so`zlar, yangi

yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.<sup>9</sup>

Yozuvchilar oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadi. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir.<sup>10</sup>

*M: Qulmat. Men nima **devdim**. Rahmatillaning obro'si zo'r.*

*Ha, Navisaxon yaxshi ish qilmapti. (134)*

Dialektizmlar asar tilining jozibadorligi, qahramonlar nutqining oʻziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning qaysi hududda kechayotganligi haqida maʼlumot beradi. Dialektizmlar ayrim sabablarga koʻra va maʼlum maqsadni koʻzlab badiiy til tarkibida qoʻllaniladigan, unda maʼlum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini oʻzida aks ettiradigan soʻz va soʻz birikmalaridir.<sup>1</sup>

*M: Pirmat. Voy, omi-yey, kim aytadi seni **pront** ko'rgan deb! General harbiy bo'ladi, kalla. (135)*

*Shoir. Nima deyatuvdim, nevarali bo' ladigan bolaga o'xshab. Nima qiliq bu axir? (138)*

Dialektal soʻzning badiiy matnga olib kirilishi yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Sharof Boshbekovning dramalarida ham dialektizmlar oʻziga xos tarzda ifoda etilgan. Yozuvchi oʻz asarining badiiy ifodaliligi va taʼsirchanligini oshirishda shevaga xos soʻzlardan ustalik bilan foydalangan.

---

<sup>9</sup>Qilichev E. Oʻzbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent:Oʻqituvchi, 1992. – 160 b.

<sup>10</sup> Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994. 57-b.



***Kasb-hunarga oid terminlar.*** Lug`at tarkibidagi so`zlar ishlatilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

- a) aktiv (faol) so`zlar;
- b) passiv (nofaol) so`zlar.

Kundalik turmushda qo`llanilishi odat bo`lib qolgan, yangi xususiyatlari ham bo`lmagan so`zlar faol so`zlar deb yuritiladi. So`zlarning faolligi umumiy til doirasida bo`lishi bilan birga biror kasb sohasida ham bo`ladi. Tildagi nofaol so`zlar hayotdagi yangiliklarni yoki eskirib qolga tushunchalarni anglatgani uchun turli o`zgarishlarni aks ettirib turadi. Leksikalogiya esa tilning lug`at tarkibini guruhlarga va qatorlarga bo`lib o`rganadi. Qo`llanilishi ma`lum bir hudud bilan chegaralangan so`zlar dialektizmlar deb ataladi va ular ham alohida guruhni tashkil qiladi. Lug`at tarkibidagi fan va texnika sohalarida ishlatiluvchi so`zlar terminlar, ularni o`rganuvchi soha terminologiya deb ataladi. Terminlar nutqda qo`llanganda esa ekspressiv bo`yoqqa ega bo`lmaydi.

Tilning lug`at tarkibidagi so`zlar asosan quyidagilarga bo`linadi:

- umumxalq ishlatadigan so`zlar;
- shevalarga xos so`zlar (dialektizmlar);
- kasb-hunarga oid so`zlar (terminologik yoki professional leksika);
- eskirgan so`zlar (istorizm va arxaizm);
- neologizmlar
- jargon va argotika;
- ekspressiv-stilistik leksika.<sup>11</sup>

Albatta, har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi o`rinda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg`u beriladi:

“Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o`laroq alohida vazifani-kommunikativ vazifa bilan murakkab o`zaro aloqadorlikda namoyon bo`luvchi va

---

<sup>11</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent: O`zbekiston, 1992. - 400 b.

matnning o`ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”.

Shu o`rinda alohida ta`kidlab o`tish kerakki, tilning bu o`ziga xos estetik vazifasi namoyon bo`ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biror bir nutq ko`rinishida til o`zining bu vazifasini reallashtira olmaydi. Lekin bu fikrlarga ham bir qancha e`tirozli fikrlar ilmiy adabiyotlarda uchraydi.

Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san`at va hokazo sohalariga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir. Kasb-hunar leksikasi (professionalizmlar), asosan, muayyan sohaga oid og`zaki va yozma matnlarda faol qo`llanadi, umumtil doirasida esa ular ancha passiv bo`ladi. Bunday qatlam leksemalarining ishlatilish doirasidagi chegaralanish shu bilan belgilanadi<sup>12</sup>. Sharof Boshbekov dramalarida ham qahramonlarning kasbiy atamalaridan o`z o`rnida foydalanish hollari uchrab turadi.

*M: Olim. Menmi? Unaqa fan yo'q, otam. Rahmatilla ham, men ham paleantropologlarmiz. Tushundingiz-a? Bu degani antropologiyaning qadimgi odam suyaklarini o'rganuvchi bo'limi degani. Men nazariyotchiman, Rahmatilla-amaliyotchi- farqimiz shunda.*

**Paleantropolog, antropologiya, nazariyotchi va amaliyotchi** so'zlari antropologiya sohasiga oid atamalardir. Drama qahramoni aynan shu soha vakili bo'lganligi uchun u bilan bog`liq bo`lgan atamalar dramada keltirilgan. Unda ham ma'lum bir maqsad ko'zlangan. Bu atamalardan foydalanish natijasida tasvir obykti yanada kuchliroq namoyon bo`ladi. Nutqiy parchada sheva so`zlar, kasb-hunarga oid leksemalar, fonografik hodisalar, mantiqiy urg`u kabi bir qancha vositalardan foydalanilgan.

Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma'lum uslubiy maqsadlarda foydalanish holatlari ham uchraydi.

---

<sup>12</sup> Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994. 59-b.

**Jargonlar.** Qo`llanish doirasi chegaralangan leksikaning uchinchi turi bu jargon, argo, varvarizmlar, vulgarizmlar hisoblanadi. Mahalliy territorial dialektlarning so`zlari (sheva so`zlari) dialektizmlar sanalsa, sinfiy dialektning so`zlari jargonlar deyiladi. Jargonlar sinfiy ayirmalikni ko`rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli bo`lgan so`z va iboralardir.

Jargonlar o`zbek tilining o`z so`zlaridan, ba`zan boshqa tillardan (arab va tojik tillardan) olinib qo`llangan so`zlardir.

Bunday so`zlar umumxalq tilidan farq qilib biror ijtimoiy guruh o`rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so`z va iboralarga jargon so`zlar deyiladi. Jargon fransuz tilidan olingan bo`lib, "buzilgan til" ma`nosini anglatadi.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o`zaro so`zlashuvda fikrni boshqalardan maxfiy, sir tutishdir. Shunga ko`ra jargonlarning yaratilish yo`llari ham ko`pincha tilning so`z yasash sistemasiga to`g`ri kelmaydi. Ular o`ziga xos sun`iy shartli so`zlardir. Jargonlar ko`pincha tildagi so`zlarning tovush tomonini o`zgartirish, buzib qo`llash, boshqa tillardan so`z o`zlashtirish va tildagi mavjud so`zlarga maxsus ma`no berish yo`li bilan hosil qilinadi.

Jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo bo`lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin: **professional jargonlar va ijtimoiy jargonlar.**<sup>13</sup>

Professional ya`ni kasbiy jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus so`z va iboralar kiradi. Bu xil jargonlarning paydo bo`lishi, odatda ishlab chiqarish, ixtisosi, mehnatning umumiy sharoiti va ba`zan turmush-madaniyat tarzlari bilan ham bog`liq bo`ladi. Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan manfiy (nomaqbul) ma`no ifoda qilishi va ba`zan vulgar xarakterga ega bo`lishi bilan farqlanadi.

*M: Qulmat. Haa. Shunda shartta kolxoz bergan qo`shog`izni ko`tarib, barini ariston qiladilaru, o`ttiz chaqirim yo`l bosib, jamoaga topshiradilar, ho`pmi? Keyin bilishsa, qo`shog`izda umuman o`q bo`lmagan. (Miltiq ma`nosida) (154)*

---

<sup>13</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т: Ўқитувчи. 1983

*Pirmat. Qulmat..*

*Qulmat. Labbay...*

*Pirmat. Qayoqda deyapman?*

*Qulmat. Nima axir?*

*Pirmat. Dard nima!? **Badrafxona.** (Xojatxona ma'nosida)*

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining o`ziga xos tarzda qo`llanishi bilan farqlanadi. Ular talabalar tilida **(chizmoq-qochmoq), (yopmoq-sessiyani tugatmoq), yoshlar tilida esa (g`isht-xunuk), (sindirmoq-lol qilmoq), (uxlatmoq-aldamoq)** kabi.

Jargonlar tarkibi boshqa tildan olingan o`zlashma birlik bilan boyib boradi. Tez-tez yangilari bilan almashib turadi.

Ayrim soha vakillari va soha guruhlari nutqiy tejamkorlik, qulaylik uchun ham jargon qo`llaydi. Mualliflar esa bunday birliklardan persanaj tabiatini ochib berishda foydalanadilar.

*M: Pirmat. Ja bag`ri keng shekilli-da, a?*

*Qulmat. Kim?*

*Pirmat. **Kallashunosingni** aytaman.*

*Qulmat. Qo`shnichilikda. (Olim ma'nosida) (126)*

*Tesha. Qonunni **suv qilib ichib yuborgan.** (Juda ham yaxshi bilishini nazarda tutmoqda) (234-b)*

Jargonning kelib chiqishi, qo`llanilishi, turi kabi masalalar-sotsialingvistikaning o`rganish manbaidir.<sup>1</sup>

**Argolar.** Argo so`zi fransuzcha "argot" so`zidan olingan bo`lib, biron ijtimoiy guruhning o`ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat, qorishiq va ko`p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo`ladi. Argo nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida

qo`llanadi:

1. O`g`rilar nutqida: (mandarin-tilla), (akula-panjarani kesish uchun moslama), (kalamush-o`z yaqinlarinikiga “tushadigan”), (urkagan-tajribali o`g`ri);

2. Mahbuslar nutqida: (maymun-oyna), (shobla-qalloblar guruhi), (krokodil-qaychi), (ment-militsioner), (pushka-pistolet).

Argolar ham jargon so`zlar kabi biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o`g`rilar, olibsotarlilar, poraxo`rlar va boshqalarning “yasama tili”dir. Argolar yashirin ma`no ifodalaydi.

Argolar qiziqishlari, mashg`ulotlari, yoshlari bir xil bo`lgan juda tor doira (guruh)ga mansub kishilar qo`llaydigan, ma`nosi shunday kishilarga tushunarli bo`lgan so`zlardir<sup>14</sup>. Ular umumxalq tiliga oid so`zlardan bo`lsa-da, ammo bunday so`zlar ham keng xalq ommasiga tushunarli bo`lmaydi. Shu jihatdan argolar jargonlarga o`xshaydi. Argotizm va jargonizmlar asosan, jonli so`zlashuvda tor doirada ishlatiladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari uchraydi. Jargonlar va argolar tilni bulg`aydi. Tilning sofliigi va tozaligi, aniqliligi va ravshanligi uchun jargonlarga qarshi kurashni ham taqozo qiladi.

*M: Shoir. A`zamjon doim o`g`il bola gapni gapiradi. Nima demoqchi edim? Ha, Rahmatilla akamlarsiz yashash qiyin. (Rost gap ma`nosida) (140)*

Lekin badiiy adabiyotda stilistik maqsadda argolardan qisman foydalaniladi. Argolar ma`lum ijtimoiy tabaqa yoki guruhlar o`rtasida tarqalganligidan, ular shu toifa kishilar nutqini berish vositasi sifatida ishlatiladi.

---

<sup>14</sup> O`sha manbaa.

**Vulgarizmlar.** Vulgarizmlar - haqorat ma`nosida qo`llaniladigan so`zlar. Masalan: *xunasa, dayus, so`tak, to`nka* kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma`nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo`llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi. Ammo badiiy asar tilida bunday so`zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.<sup>15</sup>

*M: Qulmat. Qo`ylardan xavotirlanmang. Yetmish yildan beri qo`llaridan tayoq tushmaydi. Prontga go`sht kerak deb urushdan ham bron qilishgan, ho`pmi?.. Lekin, mulla Olimjon, bizning dadamiz bosmachining enasini ko`rsatganlardan.* (128)

*Pirmat. E, o`l, hayvon. Javzo kirib, saraton chiqsa, payg`ambar yoshiga chiqasan, farosat jonivor –anqoga shafe.* (163)

*Pirmat. Voy, omi-yey, kim aytadi seni pront ko`rgan deb! General harbiy bo`ladi, xumpar, to`nka.* (135)

Yuqoridagi misollardan ko`rinadiki, vulgar so`zlar badiiy asar qahramoni nutqini individuallashtiradi va badiiy asarning ekspressivligini ta`minlaydi.

**Varvarizmlar.** O`zbek tilida shunday so`zlar borki, ular adabiy tilda qo`llanilmaydi. Ular o`zbek tiliga o`zlashmagan, o`zga tilning so`zi yoki iboralari - varvarizmlar deyiladi. Varvarizmlardan badiiy asarda, odatda, o`zga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni berishda va qahramonlar nutqini individuallashtirishda, badiiy asar ta`sirchanligini oshirishda foydalaniladi. Varvarizmlarga dramaturgning deyarli barcha dramalaridan misollar topish mumkin.

Ayniqsa, bu holat dramaturgning “Eshik qoqqan kim bo`ldi” dramasi qahramoni Olim nutqida yaqqol namoyon bo`ladi. Olim kasbiga ko`ra antropolog. U o`z nutqida varvarizmlardan o`rinsiz va ko`plab foydalanadi. Uning so`zlarini

---

<sup>15</sup> O`sha manbaa.

tushunmagan Pirmat esa ularga o'zicha javob qaytaradi. Bu esa asarda komik vaziyat va holatlarni yuzaga keltirish bilan birga, badiiy asarning ekspressivligini ta'minlab, o'quvchiga zavq bag'ishlaydi.

*M: Pirmat. O'zing bilasan endi. Ota de, buva de, boboy de. Ja haqqing ketib qoladigan bo'lsa, bor ana, tog'a de, imon topgur.*

*Olim. **Da, da,** tushunamiz, tushunamiz.*

*Pirmat. Ha, ana, **dada** desang ham bo'laveradi, imon topgur. (128)*

*Olim. Rahmatilla tilla odam-da o'zi. Qachon kelmang, eshigi sutkaning "lyuboy momentida" ochiq. (160)*

Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan chegaralangan qatlam birliklari badiiy asarning jozibadorligini ta'minlash bilan birga muallifning so'z qo'llash mahoratidagi o'ziga xos xususiyatlarni ham ochib bergan.

### 1.3. Sharof Boshbekovning soʻz qoʻllash mahorati

Badiiylik har qanday adabiyotning bosh mezonini boʻlib, u adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Tilshunoslar yozuvchining mahoratini, asar badiiyatini baholashda asar tilini tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganganda, u mavzu va gʻoyadan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Shu sababli tilshunoshlar badiiy asar tiliga oid ilmiy asarlarda eskirgan, tarixiy; yangi, koʻp maʼnoli soʻzlar; sinonimlar, omonimlar, antonimlarga eʼtibor beradilar. Zero, badiiy adabiyot tili oddiy til emas, obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi til sanaladi. Badiiy tilda emotsionallik, serqatlamlilik, obrazlilik, musiqiylik, serboʻyoqlik, ixchamlilik bor. Leksik vositalarni tahlil qilishda yozuvchi mahoratining ana shu qirralariga eʼtibor qaratilsa, ayni muddao boʻlar edi.

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning bepoyon imkoniyatlarini oʻzida xolis mujassam etgan badiiy asarlar benihoya koʻp. Yurtimiz istiqloli bu yoʻldagi barcha noyob isteʼdod egalarining iqtidorini yuzaga chiqarishni til va adabiyot sohasi vakillari oldiga ulkan vazifa sifatida yukladi.

Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Sharof Boshbekov asarlarining tili hozirga qadar toʻla oʻrganilmagan va hali adibning mahorati ochib berilmagan. Har qanday chinakam isteʼdod egasi kabi Sharof Boshbekov ham oʻzbek tilining estetik vazifasini nechogʻli mukammal va serjilo ekanligini isbotlab berdi.

Sharof Boshbekov oʻzining barakali ijodi bilan oʻzbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qoʻshgan hassos dramaturgdir. Uning asarlarida oʻzbek tilining boyligi, goʻzalligi, tunganmas ifoda imkoniyatlari oʻzini toʻliq namoyon etgan. Bu asarlarni oʻqiganda, mahoratli adibning oʻzbek xalqi xazinasini nechogʻli tugal egallaganligiga, betakror soʻz ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni oʻz badiiy niyatiga muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi tovlanishlarga yanada sayqal-u jilo bera olganiga, bu birliklardagi maʼno injaliklaridan juda ustalik bilan foydalana olganiga takror va takror amin boʻlmoq va hayratlanmoq mumkin. Buni



birgina adib asarlarida qo'llanilgan *baynalminal so'zlar* misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy manbalarda bunday so'zlar xususida fikr yuritilganda, ularning aksariyati ilm-fan, transport, ishlab chiqarish va texnikaga oid tushunchalar bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, professor Shavkat Rahmatullatev “O'zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar baynalminal leksemalar. M: *teatr, roman, sujet, traktor*.”

Semantik jihatdan baynalminal so'zlar orasida ishlab chiqarish (*zavod, fabrika, sex*), ilm-fanga (*sema, teorema, kislorod*), transportga (*mashina, avtomobil, avtobus*), san'atga (*teatr, opera, balet*), harbiy tizimga (*avtomat, tank, raketa*) oid so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi”-deb qayd qiladi.<sup>16</sup>

Dramaturg o'zining mashxur “Temir xotin” dramasiida baynalminal so'zlarni dialogik nutqda o'ziga xos tarzda qo'llash orqali qahramon xarakteridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berishga erishgan.

M: *Olimjon. Ahvolni qarang: haliyam o'choq, haliyam tezak yoqiladi.*

*Progress yo'q.*

*Qo'chqor. Nima-gress?*

*Olimjon. Progress. (166)*

Yuqoridagi misolga e'tibor qiladigan bo'lsak, dramaturg *progress* so'zining qisqargan shaklini so'roq olmoshi bilan birga qo'llab, asar qahramoni Qo'chqor xarakteridagi soddalik, beg'uborlik, omilik kabi sifatlarni ochib beradi. Qo'chqor sodda qishloq traktorchi sifatida gavdalanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida barcha mustaqil so'z turkumlariga oid bo'lgan baynalminal so'zlar keng qo'llaniladi. “Temir xotin” dramasiida ham turli mustaqil so'z turkumlariga oid baynalminal so'zlar yuqorida tilga olingan shaklda qo'llangan.

Dramada ot so'z turkumiga oid baynalminal so'zlar ko'p uchraydi.

---

<sup>16</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T,2010. 107-b.

*M: Olimjon. Masalan, boshqaruv blokiga yumor hissi bilan bog'liq **mikrosxema** o'rnatilsa...*

*Qo'chqor. Nima-sxema?*

*Olimjon. **Mikrosxema**. (167)*

Yuqoridagi holat asarda “**prinsip**”, “**byurokrat**”, “**ekspriment**”, “**kopeyka**”, “**kvarts**”, “**inkvizitor**” kabi ot so'z turkumiga oid leksemalarning qo'llanilishida ham uchraydi.

Dramada, shuningdek, sifat so'z turkumiga oid baynalminimal leksemalar ba'zi o'rinlarda uchraydi.

*M: Alomat. Tashqi olam bilan faqat **manusonik** metodda aloqa qilaman?*

*Qo'chqor. Nima-so'nik?*

*Alomat. **Manusonik**. (167)*

Dramada “**plastik**”, “**feodal**” kabi sifat so'z turkumiga oid baynalminimal birliklar ham shu tarzda qo'llanilgan bo'lib, ular ortqali personajning individual nutqi shakllantirilgan.

Bulardan tashqari, dramada fe'l so'z turkumiga oid baynalminimal so'zlar ham qo'llanilgan bo'lib ular, asosan, qo'shma fe'lning tarkibiy qismi bo'lib kelgan.

*M: Olimjon. Shu blokni almashtirish kerak ekan-da, qayeridadir **kontakt** bo'lmayapti.*

*Qo'chqor. Nima-takt?*

*Olimjon. **Kontakt**. (167)*

Yuqorida muallif qo'shma fe'lning tarkibiy qismi bo'lib kelgan baynalminimal so'zning qisqargan shaklini so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llash orqali asar qahramoni Qo'chqor xarakteriga xos bo'lgan jihatlarni ochib bergan. Bu xususiyatni “**ekspluatatsiya qilmoq**”, “**gipnoz qilmoq**” kabi fe'l so'z turkumiga oid leksemalarni qo'llanilishida ham uchratishimiz mumkin.

Shuningdek, dramada **tronspozitsiya** hodisasiga uchragan baynalminimal leksemalar ham qo'llanilgan.

**Tronspozitsiya** (lot. “o’rin almashtirish”, “ko’chirish”)-grammatik kategoriyalarning o’ziga xos bo’lmagan shaklda qo’llanilishi, ya’ni bir turkum so’zning matnda boshqa bir turkum so’zi kabi ishlatilishi.<sup>17</sup>

Asarda sifat va ot so’z turkumiga oid baynalminal leksemalar fe’l so’z turkumiga oid leksemalar bilan birikib, ravish so’z turkumiga xos sintaktik vazifalarni bajarganligining guvohi bo’lamiz.

*M: Olimjon. To’g’ri, lekin bu muammoni asosiy maqsadidan kelib chiqib, kompleks hal qilish kerak.*

*Qo’chqor. Nima-ples?*

*Olimjon. Kompleks. (161)*

“Kompleks” so’zi aslida ot so’z turkumiga oid baynalminal so’z hisoblansa-da, yuqoridagi misolda bu so’z “hal qilmoq” fe’liga bog’lanib, “ravishlashish” hodisasini o’zida namoyon qilmoqda.

Misollardan ko’rinadiki, muallif dramada asar qahramonlari ruhiy holati, xarakteridagi o’ziga xos jihatlarni ochib berish uchun ot, sifat, fe’l, ravish so’z turkumiga oid baynalminal leksemalarni “nima?” so’roq olmoshi bilan birgalikda qo’llagan. Bu esa muallif so’z qo’llash mahoratining o’ziga xosligi va individualligidan dalolat beradi.

---

<sup>17</sup> Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –T.2009. 156-b.

## **Bob bo'yicha qisqa xulosa**

Sharof Boshbekov dramalarida emotsional-ekspressivlik yuqori bo'lib, bu holat adib asarlarining o'quvchi uchun qiziqarli, jonli tarzda namoyon bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Yozuvchining ijod mahsuli bo'lgan dramalarda til birliklaridan o'rinli foydalanilganligini ko'rish mumkin. Dramaturg ekspressivlikni hosil qilishda boshqa til birliklari singari nutq tovushlarining ham o'z o'rni bo'lib, ular vositasida bir qancha ma'nolar ifodalash mumkin ekanligini ko'rsatib bera olgan.

Sharof Boshbekov ijodida ham so'z qo'llanishining o'ziga xos fonetik jihatlari bo'lib, tasvir mazmuni va jarayoniga xos bunday xususiyatlar yozuvchi ijodidagi individuallikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida fonetik usul bilan ekspressivlikni hosil qilish yuqori bo'lib, yozuvchi quyidagi usullardan ko'proq foydalangan:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (dinamik urg'u);
- 2) unlini cho'zish (kvantitativ urg'u);
- 3) so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish.

Yozuvchi dramalarida unlining cho'zilishi xitob, ta'kid, kesatish, xursandchilik, xayratlanish, buyruq, taajjub, taklif, voqelikka norozilik, harakatning davomiyligi kabi konnotativ ma'nolarni ifodalab kelgan bo'lsa, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish bilan bog'liq holatlarda qahramon nutqini individuallashtirish va ifodani jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadi ko'zlanganini ko'ramiz. So'zlarni buzib talaffuz qilish natijasida o'sha so'zlayotgan drama qahramonining xarakteri to'laligicha kitobxonga tushunarli bo'libgina qolmay, badiiy asar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Sharof Boshbekov dramalarining leksik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, adib dramalarining badiiyatini ochib berishda noadabiy qatlamga oid birliklarning o'rni katta ekanligini guvohi bo'ldik. Dramalarda dialektizmlardan asar tilining jozibadorligi, qahramonlar nutqining o'ziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning qaysi hududda kechayotganligi haqida ma'lumot berish maqsadida

qo'llanilgan. Dramalarda, shuningdek, kasb-hunarga oid leksemalar, ya'ni professionalizmlar ham faol qo'llanilgan bo'lib, ular natijasida tasvir obyekti yanada kuchliroq namoyon bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Ular orqali kitobxon drama qahramoning qaysi soha vakili ekanligini favqulodda tez anglab oladi. Dramalarda qo'llanilgan noadabiy qatlamga oid leksemalar badiiy asarning jozibadorligini ta'minlash bilan birgalikda, muallifning so'z qo'llash mahoratidagi o'ziga xoslikni ham ochib bergan.

Ma'lumki, Sharof Boshbekov o'zining barakali ijodi bilan o'zbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo'shgan hassos ijodkordir. Uning asarlarida o'zbek tilining boyligi, go'zalligi, tunganmas ifoda imkoniyatlari o'zini to'liq namoyon etgan. Buni birgina adib asarlarida qo'llanilgan *baynalminal so'zlar* misolida ham ko'rishimiz mumkin. Muallif dramada asar qahramonlari ruhiy holati, xarakteridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berish uchun ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumiga oid baynalminal leksemalarni "nima?" so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llagan. Bu esa, muallif so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va individualligidan dalolat beradi. Muallif dramada asar qahramonlari ruhiy holati, xarakteridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berish uchun ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumiga oid baynalminal leksemalarni "nima?" so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llaganligining guvohi bo'ldik. Bu esa, muallif so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va individualligining yana bir dalolatidir.

## II BOB. SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. Sharof Boshbekov dramalarida morfologik birliklarning qo'llanilishi

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun morfologik shakllarning va sintaktik qurilmalarning stilistik variantlaridan foydalanish va tilda ana shunday sintaktik va morfologik sinonimiyaning mavjudligi grammatik birliklar haqida so'z yuritishga asos bo'ladi.<sup>18</sup>

Morfologik shakllar ichida subyektiv baho shakllarida stilistik bo'yoq aniq sezilib turadi. Bu shakllar ko'proq badiiy nutq uchun xarakterli bo'lib, u oz bo'lsa-da, og'zaki so'zlashuv nutqida uchraydi.<sup>19</sup>

Ma'lumki, morfologik usul bilan ekspressivlikni hosil qilishda maxsus so'z shakllari va grammatik ma'no vazifasi mavjud bo'lgan so'z shakllaridan foydalanamiz. O'zbek tilida ot va fe'l so'z turkumlari shakllarga boyligi hamda boshqa so'z turkumlarida shakllar hosil qilish birmuncha chegaralanganligi bois, ekspressiv-emotsionallikni hosil qilishning morfologik usuli asosan ot va fe'l so'z turkumiga xosdir.

Sharof Boshbekov dramalarida ham ba'zan subyektiv baho shakllari, ba'zan kichraytirish-erkalash shakllari deb yuritiladigan ot so'z turkumi doirasida emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi –cha, - choq (chak), -jon, -xon, -oy, -gina singari qo'shimchalar yordamida hosil qilingan shakllarni uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar bilan faqatgina kichraytirish-erkalash ma'nolari emas, balki shu bilan birgalikda ijobiy va salbiy munosabat, suyish, mensimaslik, tahqirlash, hurmatlash, e'zozlash kabi ma'nolar yuzaga keladi.

Salbiy munosabat:

*M: Olimjon. Bu-mashina. Ertaga sinovdan o'tmasa, buzib tashlayman. Bir uyum temir qoladi.*

*Qo'chqor. Ha, endi buzvang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzvangiz*

<sup>18</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т: Ўқитувчи. 1983

<sup>19</sup> Кўрсатилган манбаа.

*qo'lginingiz akashak bo'p qolmaydimi, mulla. (178)*

Bu misoldagi salbiy munosabatda mensimaslik, kinoya, piching ma'nolari aniq sezilib turibdi. Misolda bu qo'shimchaniing vazifasi erkalash ma'nosini ifodalash emas, aksincha, kesatish, piching ma'nolarini ifodalashdir.

Ijobiy munosabat:

*M: Salohiddinov. E, Baraka top, uka. Manavini ushla. Sekin, sekin... Uff, peshindan beri qidiraman-a? Ha, mayli bo'lar ish bo'ldi. Qani, yigitcha, shtablaring qayerda, o'sha yoqqa boshla-chi. Domlalarindan kimlar bor? Mamarasulov bormi? Tog'ayev-chi? (254)*

Yuqoridagi misolda kichraytirish ma'nosi anglashilayotgandek tuyuladi, lekin bu misolda –cha qo'shimchasini qo'llashdan maqsad yigitning kichkinaligini ifodalash emas, balki yigitga nisbatan ijobiy munosabatni ham ifodalashdir. Xuddi shu shaklning o'zi vaziyat va gap ohangigiga ko'ra salbiy munosabat, ya'ni kesatish ma'nosini ham ifodalab kelishi mumkin.

Otning egalik shakllarini matnda maxsus qo'llash bilan ham ekspressiv-emotsionallik ifodalanadi. Birinchi shaxs birlik shakli qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarda yoki undalmalarda qo'llanganda, suyish, ardoqlash, erkalash kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

*M: Pirmat. Hali ketmoqchi bo'luydim. Endi o'sha sanitaringni ko'rmasdan ketmayman. Qachon kelsayam, mayli, kutaman. Odamlar hajgayam borishadiku... Qulmat, xufton bo'lib qoldi, tahoratga suv tayyorla, **bolam**. (161)*

*Qumri. Bo'la qol, bolam. (sumkani olib, o'g'lini yetaklaganacha). Yaxshiyomon gap o'tgan bo'lsa, xafa bo'lmang, **dadasi**. (167)*

Yuqoridagi misollarning birinchisida egalik qo'shimchasi suyish, erkalash ma'nolarini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi misolda, asosan, hurmat ma'nosini ifodalagan.

Bundan tashqari, muallif dramalarida egalik affiksi quyidagi ma'nolarni ifodalagan o'rinlarni ham ko'plab uchratamiz:

- faxrlanish ma'nosi

*M: Qulmat. Qo'ylardan xavotirlanmang. Yetmish yildan beri qo'llaridan tayoq tushmaydi. Frontga go'sht kerak deb urushdan ham bron qilishgan, ho'pmi?.. Lekin, mulla Olimjon, **bizning dadamiz** bosmachining enasini ko'rsatganlardan. (128)*

- koyish, nolish, norozilik ma'nosi

*M: Qumri (shosha-pisha arqonni yecha boshlaydi). Bunaqaligini bilganimda o'zim yechib ketardim. Voy, **sho'rginam** qursin-a! Belingiz ham qotib qolgandir, dadasi. (178)*

- achinish ma'nosi

*M: Samar. Qiziq bo'ldi-ku... I, shoshma! Qayoqqa ketadi? Nega ketadi? Bu ketib qolsa, **Otam** nima bo'ladi? **Otam! Otaginam!** Uying kuyib qoladigan bo'ldi, **otam**. (196)*

- kesatiq, piching ma'nosi

*M: Qo'chqor. Ketsang, yechib ket, xo'? Insofing bormi o'zi? Qanaqa odamsan? Bozortoy, Bozortoy! Bir **turqingizni** ko'rsatib yuboring. (167)*

Ko'rsatilgan misollarning barchasida ohang, ya'ni intonatsiya muhim rol o'ynaydi.

Ba'zan egalik qo'shimchasi tushirilgan holda ham qo'llanilishi mumkin. Bunda ham u, asosan emotsional-ekspressiv ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

*M: Olimjon. Kim sizni bunday bog'lab tashladi, Qo'chqor aka?*

*Qo'chqor. Kim bo'lardi? Bunaqa bema'ni ishlar faqat **bizning xotindan** chiqadi, Olimtoy. (155)*

Yuqoridagi gapda kesatiq, piching, voqelikka norozilik ma'nolari ifodalangan.

Shaxs-son ma'nosiga ega bo'lgan til birliklarini o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llash orqali ekspressivlikni ifodalash morfologik usulning ko'rinishlaridan biridir. Mag'rurlanish, kesatish, kamsitish, hurmatlash,



hurmatsezlik kabi ijobiy yoki salbiy ma`nolarni hosil qilishda shaxs-son formalarini bir-birining o`rnida almashtirib qo`llash mumkin. Masalan, ko`plik shaklida kelgan uchinchi shaxsdagi fe`lni birlik son o`rnida qo`llash kesatiq, piching kabi ma`nolarni hosil qiladi.

*M: Tesha. Men-ku men, siz-chi? O`ttizdan oshib qoldingiz-ov?*

*Turg'un. Uylanyapmiz, uylanyapmiz, xotirjam bo'l, og'ayni.*

*Tesha. Tabrik, tabrik. Kelinposhsha sizga tegayotganini **biladilarmi?***

(219)

Yuqoridagi misolda uchinchi shaxs formalarining almashinib qo`llanilishi personaj nutqida salbiy ma`noni ifodalashga xizmat qilgan.

Ba`zan birinchi shaxs ko`plik shaklidagi fe`l birinchi shaxs birlik o`rnida qo`llanadi. Bunda ham, asosan, ekspressiv-emotsional ma`nolar ifodalanadi.

*M: Tesha. Men-ku men, siz-chi? O`ttizdan oshib qoldingiz-ov?*

*Turg'un. Uylanyapmiz, uylanyapmiz, xotirjam bo'l, og'ayni.*

*Tesha. Tabrik, tabrik. Kelinposhsha sizga tegayotganini biladilarmi?*

(219)

*Sulton (iliq ohangda). Ha, muncha bidirlading, nafasingni rostla, mundoq ichkariga kir.*

*Turg'un. Otdan tushsinlar.*

*Tesha. **Tushsak tushaveramiz-da**, birov cho`ntagimizga kartoshka tiqib ketarmidi. (222)*

*Shoir. Bizam jaa o`ladigan joyda **turmasmiz**, amaki.*

*Olim. Tushunamiz, tushunamiz. Domda bittasiz. (134)*

Yuqoridagi misollarning har uchallasida ham birinchi shaxs formalari almashinib qo`llanyapti. Lekin birinchi misolda bu formalar kamtarlik ma`nosini ifodalashga xizmat qilayotgan bo`lsa, ikkinchi misolda ularni birining o`rnida

ikkinchisini almashtirib qo'llash orqali kesatiq, piching, o'zini baland tutish ma'nolari, uchinchi misolda mag'rurlik, gina ma'nolari shakllantirilgan.

Ma'lumki, og'zaki nutqda ko'p hollarda ikkinchi shaxs birlik shaklini ifodalovchi birliklar o'rnida shu shaxsdagi ko'plik ma'nosini ifodalovchi shakllar qo'llaniladi, xususan, fe'llarda ham. Bunda, asosan, xurmat ma'nosi ifodalanadi va bu tabiiy hol, albatta.

*M: Pirmat (Jahl bilan u yoqdan-bu yoqqa yura boshlaydi, so'ng narigi xonaga chiqib ketadi).*

*Olim. Tushunamiz, tishunamiz.*

*Qulmat. Xafa bo'lmaysiz, mulla Olimjon, dadamizning mashqlari pastroq. Rahmatilla bilan bi-i-ir tanishtirib qo'yay deb kelgandim. (128)*

Lekin har doim ham bu shakllar orqali bunday mazmun ifodalanavermaydi. Xususan, dramalarda bu shakllarning almashinib qo'llanilishi orqali personaj nutqida kesatiq, piching ma'nolari ham ifodalanganliginining guvohi bo'lamiz.

*M: Shoir. Bizam jaa o'ladigan joydamasmiz, amaki.*

*Olim. Tushunamiz, tushunamiz. Domda bittasiz. (134)*

*Qo'chqor. Ketsang, yechib ket, xo'? Insofing bormi o'zi? Qanaqa odamsan? Bozortoy, Bozortoy! Bir turqingizni ko'rsatib yuboring. (167)*

Yuqoridagi misolda Olim va Qo'chqor nutqidagi kesatiq, piching ma'nolari muallif tomonidan, aynan, shaxs-son formalarini almashtirib qo'llash orqali yuzaga chiqarilgan.

Ba'zan personajlar nutqida fe'l mayllari formalari ham almashinib qo'llanilishi mumkin. Bunda ham, asosan, uslubiy ma'no ko'zlangan bo'ladi. Xususan, ikkinchi shaxs buyruq mayli o'rnida, ba'zi hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe'l qo'llaniladi. Bunda ko'proq xurmat, e'zozlash, kesatiq, piching ma'nolari ifodalanadi.

*M: Qo'chqor. Hozir, taqsir... (choyni olib kelib). Qani, dasturxonga qarasinlar, taqsir. (Kerilibroq). Buyuraymi, "jiz-biz" qivorsin. (181)*

*Sulton (iliq ohangda). Ha, muncha bidirlading, nafasingni rostla, mundoq ichkariga kir.*

*Turg'un. Otdan tushsinlar.*

*Tesha. Tushsak tushaveramiz-da, birov cho'ntagimizga kartoshka tiqib ketarmidi. (222)*

Yuqoridagi misollarning har ikkalasida ikkinchi shaxs buyruq mayli o'rnida, uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe'l qo'llanyapti. Lekin birinchi misolda bu formalar xurmat, taklif ma'nosini ifodalashga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda ularni birining o'rnida ikkinchisini almashtirib qo'llash orqali kesatiq, piching, o'zini baland tutish ma'nolari shakllantirilgan.

Sonlar, aslida, gapdagi muayyan miqdorga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin ularni mavhumlik yoki me'yordan ortiqlik ma'nolarini urg'ulash uchun qo'llanilganligini ham kuzatishimiz mumkin.<sup>20</sup>

Sharof Boshbekov dramalarida ham sonlar bir qancha uslubiy-semantik ma'nolarni ifodalagan o'rinlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Xususan, dramalarda **bir** soni miqdor ma'nosini emas, qator uslubiy ma'nolarni ifodalagan.

- ma'noni kuchaytirish

*M: Olim. Yo'-o'q, bu krugliy data, buni gastranomga tushib chiqish bilan nishonlab bo'lmaydi. Uvol-a, otam. **Bir** ziyofat uyushtiraylikki, shaharda bitta bo'lsin. Qani, **bir** yeng shimarib, ha? (130)*

Yuqoridagi misolda **bir** soni aynan miqdor ma'nosini ifodalash uchun emas, balki ma'noni kuchliroq ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

- noaniqlik ma'nosi

---

<sup>20</sup> Yo'ldoshev M. va boshqalar. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T., 2009. 50-b.

*M: Nafisa. Rahmatilla amakim aytibedilar. Qadimda **bir***

*Odam bo'lgan ekan, u **bir** kuni safarga chiqipti va **bir** orolga kelib qolipti. (147)*

- ayirish, chegaralash ma'nosi

*M: Nozik. Voy, o'lay, Rahmatilla akam... Rahmatilla amakimdan so'rab yuvaman doim...*

*Nafisa. E, Nozikxon, **bir** siz emas mag'zava to'kayotgan. (150)*

Ba'zi hollarda bu son konkret miqdorni emas, balki *uzoq muddat* ma'nosidagi me'yordan ortiqlikni ifodalaydi.

*M: Olim. Axa, tushunamiz, tushunamiz.*

*Pirmat. Yosh **bir joyga** borib qolganda chol-kampir bir-biriga suyanchiq bo'lib qoldi. (134)*

So'zlovchi yoki yozuvchi biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar yoki gapirar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so'zni takrorlay berishdan qochadi. Ularni ma'nodosh boshqa so'zlar bilan almashtiradi. Shunday hollarda ko'pincha ot, sifat, sonlarning ekvivalenti sifatida olmoshlar qo'llaniladi.<sup>21</sup>

Badiiy matnda olmoshlar turli emtsional-ekspressiv ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, kishilik olmoshlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

***Biz** olmoshi *men* olmoshi o'rnida har xil stilda har xil maqsadda ishlatiladi.*<sup>22</sup>

Sharof Boshbekov dramalarida ham bu ikki olmoshning bir-biri o'rnida almashinib qo'llanilishi orqali personaj nutqida bir qator uslubiy ma'nolar hosil qilingan.

- manmanlik, maqtanish ma'nosi

*M: Salohiddinov. Bu Barnoyev "savol, savol, savol" deyaverib*

<sup>21</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т: Ўқитувчи. 1983, 116-б.

<sup>22</sup> О'sha manbaa, 116-b.

miyanglarni ham achitib yuborgandir-a? Studentligidayam shu edi. Ertadan-kechgacha muk tushib kitob o'qirdi-yu, mundoq yig'ishtirib kelsa, **bizchalik** baho ololmasdi.

- faxrlanish ma'nosi

*M: Qulmat. Qo'ylardan xavotirlanmang. Yetmish yildan beri qo'llaridan tayoq tushmaydi. Frontga go'sht kerak deb urushdan ham bron qilishgan, ho'pmi?.. Lekin, mulla Olimjon, **bizning dadamiz** bosmachining enasini ko'rsatganlardan. (128)*

- kamtarlik m'nosi

*M: Nozik. Vu-u-y, manavi gullarni-i-i. Qarab ko'z quvonadi. Kim olib keldi? Nafisa. **Biz.** (220)*

Ko'rinadiki, yozuvchi birgina birinchi shaxsni ifodalovchi olmoshlarni bir-birining o'rnida almashtirib qo'llash orqali badiiy asar ta'sirchanligini yanada yorqinlashtira olgan.

Dramaturg Sharof Boshbekov olmoshlarni matnda ustalik bilan ishlatib, tinglovchi e'tiborida ekspressivlikni oshirishga erishgan. Bu, ayniqsa, so'roq olmoshlarining qo'llanilishida alohida namoyon bo'ladi.

Ba'zan *qani* so'roq olmoshi kirish so'z vazifasida kelib, ta'kid uchun xizmat qiladi.

*M: Qo'chqor. Hozir, taqsir... (Choyni olib kelib) **Qani**, dasturxonga qarasinlar, mulla (Kerilibroq). Buyuraymi, "jiz-biz" qivorsinmi. (181)*

*Suvon. Vaalaykum assalomu vo rahmatullo. Tuzik, tuzik. **Qani**, mundoq o'tiring. (Qo'chqorga). Suv qani? Bir kosada suv keltiring.*

*Qo'chqor. Ho'p, taqsir. (181)*

Shuningdek, bu olmosh o'z ma'nosida (so'roq ma'nosida) qo'llangan o'rinlar ham uchraydi.

*M: Suvon. Vaalaykum assalomu vo rahmatullo. Tuzik, tuzik. Qani, mundoq o'tiring. (Qo'chqorga). Suv qani? Bir kosada suv keltiring.*

*Qo'chqor. Ho'p, taqsir. (181)*

Bir so'roq olmoshining har bir gap tarkibida takrorlanishi gapdan ifodalangan so'roq mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi.

*M: Ovoz. Qiziq, nega odamzod bir-birining ko'ziga qaraganda uyaladi, kuladi, g'azablanadi. Nega qulog'iga, og'ziga qarasa, bunday bo'lmaydi? Nega ko'z peshonada bo'larkan-a? Nega ensa tomonda emas? Nega? Nega? Nega-a-a!!! (212)*

Yuqoridagi parchada so'roq olmoshini har bir gap tarkibida takror holda qo'llash orqali gap tarkibidagi so'roq ma'nosi yana-da kuchaytirilganini anglash qiyin emas.

Yozuvchi dramalarida faqat olmoshlardan tuzilgan gaplarni ham qo'llaydi:

*M: Qo'chqor (hayratdan og'zi ochilib). Vo-o. Nima bu?*

*Olimjon. Qalay? (166)*

*Mohiniso. Sizningcha, nima biz... Bu nimasi? Nima bo'ldi?*

*Samar. Hech nima... (252)*

Sharof Boshbekov dramalarida yordamchi so'z turkumlari ham bir qator uslubiy vazifalarni bajargan. Ayniqsa, bu xususiyat yuklamalarning qo'llanilishida alohida namoyon bo'lgan.

Yuklama, asosan, gap shaklga bir butun holda, ba'zan sintaktik bo'lakka qo'shilib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi.<sup>23</sup>

Yuklamalar, odatda, quyidagi ma'no turlariga ega bo'ladi:

- 1) kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari;
- 2) so'roq-taajjub yuklamalari;
- 3) ayiruv-chegaralov yuklamalari;

---

<sup>23</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2010. 210-b.

- 4) aniqlov yuklamasi;
- 5) gumon yuklamasi. (1, 132)

Ma' lumki, **-mi** yuklamasi asosan so'roq ma'nosini ifodalaydi.

*M: Qo'chqor. Menga qara, o'zing bog'ladingmi, yo bitta-yarimtasi qarashib yubordimi? (2, 2)*

"Temir xotin" dramasi bu yuklama so'roq ma'nosidan tashqari boshqa uslubiy-semantik ma'nolarni ifodalagan o'rinlarni ham kuzatishimiz mumkin. Bu orqali muallif asar qahramonlari xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga erishgan.

Xususan, muallif **-mi** yuklamasini ayrim gap bo'laklarida takror holda qo'llash orqali so'roq ma'nosini emas, balki "noaniqlik", "taxmin", "chama" ma'nolarini shakllantirgan.

*M: Qo'chqor. Bilmayman, esingda bormi-yo'qmi, bir paytlar SJKmi, PJKmi degan bir balo chiquvdi. (2, 2)*

Asarning ko'p o'rinlarda bu yuklama **-lar** ko'plik formasi bilan birga qo'llanib, kesatiq, piching ma'nolarini ham ifodalagan.

*M: Qo'chqor. Hoo, qarorni ham bilarkanlarmi? (2, 5)*

Ayrim hollarda, bu yuklama sabab-natija, shart ma'nolari bilan birgalikda qahramon tilidan "biror harakatni bajarishga undash" ma'nosini ifodalagan.

*M: Qo'chqor. Bir munday, yuz-yuz ellikkacha sanamaydimi, men o'zimga kelib olmaymanmi. (2,1)*

Ba'zan bu yuklama qo'shma gapning birinchi qismi tarkibida kelib, sabab-shart ma'nolarini ham ifodalaydi.

*M: Olimjon. Buyruq berildimi, bajarasan. (2, 18)*

yoki

*Saltanat. Tovuqni eplagan boqadi, qo'lingizdan kelmaydimi, yig'ishtiring do'konni. (2, 17)*

Bunda u shart mayli hosil qiluvchi **-sa** affiksiga sinonimlik hosil qiladi.

Xuddi shunday, **-chi** yuklamasi ham, asosan, so'roq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

*M: Men-chi? Meni unutib qo'ydingmi? (2, 3)*

Muallif bu yuklamani turli xil vaziyatlarda qo'llash orqali boshqa uslubiy-semantik ma'nolarni ham yuzaga chiqargan.

Xususan, ayrim o'rinlarda bu yuklama "ta'kid" ma'nosini ifodalagan.

*M: Qo'chqor. Ayol zotining-chi, vey, joni temirdan bo'ladi. (2, 9)*

yoki

*Alomat. Ha, kecha-chi, sen aytgan zormondani Muqaddasning qulog'ida ko'rdim. (2, 8)*

Ko'p o'rinlarda bu yuklama "biror harakatni bajarishga undash, xohish" ma'nosida ishlatilgan.

*M: Qo'chqor. E, Olimtoy, surishtirib nima qilasiz, avval qo'lni yechsangiz-chi! (2, 5)*

Asarda **-chi** yuklamasini "taklif" ma'nosini ifodalagan o'rinlarda ham uchratamiz.

*M: Qo'chqor. Yuring, uyga kirib ko'raylik-chi, xotinning ko'ylak-po'ylagi bormikan? (2, 20)*

yoki

*Qo'chqor. Olimtoy, shu yem yemaydigan mol ixtiro qilsang-chi, a? (2, 13)*

Ayrim o'rinlarda, bu yuklama qo'shma gapning birinchi qismi tarkibida kelib, qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida sabab-natija, shart ma'nolarini ham ifodalaydi.

*M. Qo'chqor. G'ing de-chi, uydan haydab chiqaraman. (2, 7)*

Bundan tashqari, dramada **ham, esa, hatto, -ku, -da** kabi ta'kid yuklamalari ham faol qo'llanilgan. Bu yuklamalar umumiy ma'noda ta'kid ma'nosini ifodalasa ham, "ta'kidni qay darajada ifodalashi" ga ko'ra bir-biridan farqlanishini kuzatishimiz mumkin.

•**ham** yuklamasi, asosan, sof ta'kid ma'nosini ifodalaydi.



*M: Alomat. Agar shu eshikka munchoq bo'lmay desang, ikkinchi marta ovozingni **ham** eshitmay. (2, 19)*

- **esa** yuklamasi ta'kid ma'nosini "eslatish" ma'no qirrasini bilan ifodalaydi.

*M: Alomat. Mana, mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz **esa** faqat va faqat ko'z yoshdan iborat. (2, 27)*

- **hatto** yuklamasi ta'kid ma'nosini kuchli darajada ifodalaydi.

*M: Alomat. Hamma ishonadi, **hatto** gapirayotgan odamning o'zi ham. (2, 25)*

• **-ku** yuklamasi ta'kid ma'nosini "kuchli hissiyot" ma'nosi bilan birgalikda ifodalaydi.

*M: Qo'chqor. Men axmoq, bu robot-ku, odam emas-ku, esi bordir deb o'ylapman. (2, 27)*

• **-da** yuklamasida ta'kid ma'nosi boshqa ta'kid yuklamalariga qaraganda ozroq ifodalaydi.

*M: Qo'chqor. Ha endi, hamma aqli yetgan ishni qiladi-**da**, Olimtoy. (2, 15)*

Muallif asarda bu yuklamadan qahramon tilidagi "pisanda", "istehzo" ma'nolarini ifodalash uchun foydalangan.

*M: Olimjon. Byurokrat. Kechalari uxlamay, o'lib-tirilib sizga xotin tayyorlab bergan ekanman-**da**, a?! (2, 16)*

Ko'rinadiki, muallif dramada qahramon xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishda yuklamalarning uslubiy-semantik xususiyatlaridan ustalik bilan foydalangan. Bu esa badiiy asarning ekspressivligini ta'minlagan.

## 2.2. Sharof Boshbekov dramalarida sintaktik birliklar uslubiy vosita sifatida

Badiiy asar tili o'zbek tilshunosligida qadimdan hammani o'ziga jalb qilib kelayotgan munozarali va qiziqarli sohalardan biridir. Har bir nutq o'ziga xos vositalarga va sintaktik qonuniyatlariga egadir. Hozirgacha turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida badiiy uslubga xos vositalar xilma-xil bo'lib, ularga epitet, istiora, mubolag'a, o'xshatish, metaforani kiritish mumkin. Bundan tashqari boshqa uslublarga xos vositalar ham qo'llanilishi mumkin. Til, jumladan, o'zbek tili uslubiy vositalarga juda boy bo'lib, ularni akademik G'.Abyudurahmonov o'n ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi<sup>24</sup> Shulardan sintaktik vositalarga sodda gaplarning mazmun va ohangiga ko'ra turlari, uyushiq va ajratilgan bo'laklar, kirish, inversiya, sintaktik sinonimiya, qo'shma gap, matn, takroriylik va boshqalar. Demak, bularning har biri badiiy uslub uchun ahamiyatli bo'lib ularni alohida-alohida chuqur o'rganishni tavsiya qiladi. Chunki ba'zi sintaktik kategoriyalar ham ma'lum talablarga ko'ra ma'nolarni ifodalashi uchun nutq uslubini yaratuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi»<sup>25</sup>.

Bular ichida deydi akademik G'.Abdurahmanov "Undalmalar o'z leksik ma'nosidan tashqari ma'lum bir uslubiy mazmunga ham ega bo'ladi. Ayniqsa, gap oxirida va orasida qo'llangan undalmalarda emotsional ma'no kuchli bo'ladi".

*M: O, jonim Farg'ona, oq oltinim, bog'im! (Oybek).*

*Bu odamlarga juda-juda ko'p narsalar yarashadi, otaxon! (A.Qahhor).*

*Ol, jivan, yo'l yurib kelgansan! (Oybek).*

Emotsionallikni orttirish uchun undalmalar bir xil shaklda yoki turli shaklda takrorlanishi mumkin.

*M: Begim, begim, deb orqasidan yugurdi qiz. (A. Said)*

---

<sup>24</sup> F.Абдурахманов. Ёзма нутқ услубини яратувчи воситалар. ЎТА. 1994. 3-сон.

<sup>25</sup> O'sha manbaa.

Demak, undalmalarning uslubiy jihatlari bilan bog‘liq tomonlarni ma’lum bir yozuvchi asarlari misolida o‘rganish ham katta ilmiy xulosalar berishi mumkin.

Hozirgacha undalmalar o‘zbek tilshunosligida nazariy tomondan chuqur o‘rganilgani bilan ularning uslubiy xususiyatlari alohida yoritilgan emas. Ayniqsa, tilni tizim sifatida o‘rganila boshlagandan keyin ularning mazmuniy qirralari yana ham chuqur o‘rganila boshlandi. Undalmalarning semantik tomonlarini yoritishda, albatta, badiiy asardagi uslubiy tomonlarini ham keng yoritish mumkin.

Undalmaning eng muhim xususiyati so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan turli subyektiv munosabatlarini aks ettirishidir. Har qanday undalmada so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan ta’kidlash, ogohlantirish, minnatdorchilik, mamnunlik, suyish-erkalash, norozilik, g‘azab kabi ruhiy holatni, shuningdek, adresatning sifat belgilari haqida qo‘shimcha ma’lumotni ifodalovchi ma’no mavjud bo‘ladi.

*M: Baratoy-Ozarning san’atkor qizi. Ko‘nglingda Bokuning oq tongi yashar.*

Gapda asosiy ma’nodan tashqari Ozarda Baratoy nomli qiz yashashi, uning san’atkorligi, shuningdek, Ozarbayjon qiziga so‘zlovchining chuqur samimiyatdan iborat ijobiy munosabatini bildiruvchi ma’no ham anglashiladi. Bu ma’noning moddiy substrati-tashqi signali «Baratoy-Ozarning san’atkor qizi» undalmasidir. Chunki gapda shu undalmaning qo‘llanilishi, ayniqsa, ajratilgan undalma holida qo‘llanishi aytilgan ma’no uchun yo‘l ochgan.

Yoki:

- *Eshon, hujrani tayyorlaganmisan?*

- *Yasatib qo‘yganman, bek aka.*

Birinchi gapdagi undalma (eshon) orqali so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan e’tiborsiz, mensinmaslik pressuppozitsiyasi anglashilayotgan bo‘lsa, keyingi gapdagi undalma (bek aka) orqali tinglovchining mavqei

soʻzlovchidan ustunligi, u adresatning yugurdagi, ulfati, agenti, mirzasi-uning uchun hamma narsasi ekanligi maʼnosi anglashiladi.

Maʼlumki, nazariy grammatikada sintaktik shakllar oʻrtasida ifodalayotgan mazmuniy munosabatlarni quyidagi ikki guruhga ajratadi1.

- 1) obyektiv munosabat;
- 2) subyektiv munosabat.

Undalmalar esa gapda turli subyektiv munosabatlarni ifodalaydi.

Shuningdek, gap ifodalagan sintaktik vaziyat yoki uning unsuri bilan soʻzlovchi oʻrtasida qanday munosabat mavjudligiga koʻra, subyektiv munosabatlarni yana ikki guruhga ajratadi:

- a) undash munosabati;
- b) modal munosabati.<sup>26</sup>

Soʻzlovchi nutq jarayonida maʼlum voqelik haqida axborot berish davomida tinlovchining diqqatini shu axborotga jalb qilgisi yoki bu axborotga qoʻshimcha ravishda tinglovchiga oʻzining maʼlum subyektiv munosabatini ifodalagisi kelib qoladi. Mana shu munosabat undash munosabati sanaladi.

Undash munosabat aks etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Obyektiv mazmunga subyektiv mazmun, soʻzlovchining undash munosabati qoʻshiladi.

*M: Qoʻchqor. Hozir, mulla... (Choyni olib kelib) Qani, dasturxonga qarasinlar, mulla (Kerilibroq). Buyuraymi, "jiz-biz" qivorsinmi. (181)*

Bu yerda soʻzlovchining undosh munosabati mulla Suvonga murojaat shaklida namoyon boʻladi.

Undash munosabati bir nechta semalarni oʻz ichiga olgan murakkab butunlik hisoblanadi. Hozirgacha anʼanaviy tilshunoslikda undosh semasi bir butun holda olinib, ularning maʼnolari parchalab oʻrganilgan emas.

---

<sup>26</sup> Махмудов Н. Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.1995.

Sharof Boshbekov dramalarini tahlil qilganimizda shunday ma'nolarda qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Xususan, muallif "mulla" so'zini undalmali gaplar tarkibida qo'llab, turli xil uslubiy ma'nolarni yuzaga chiqargan.

1. Undash semasi.

*M: Qo'chqor. Hozir, mulla... (Choyni olib kelib) Qani, dasturxonga qarasinlar, mulla (Kerilibroq). Buyuraymi, "jiz-biz" qivorsinmi. (181)*

2. Hurmat semasi.

*M: Pirmat (Jahl bilan u yoqdan-bu yoqqa yura boshlaydi, so'ng narigi xonaga chiqib ketadi).*

*Olim. Tushunamiz, tishunamiz.*

*Qulmat. Xafa bo'lmay siz, mulla Olimjon, dadamizning mashqlari pastroq. Rahmatilla bilan bir tanishtirib qo'yay deb kelgandim. (128)*

3. Kesatiq semasi.

*M: Olimjon. Bu-mashina. Ertaga sinovdan o'tmasa, buzib tashlayman. Bir uyum temir qoladi.*

*Qo'chqor. Ha, endi buzhangda, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz qo'lginingiz akashak bo'p qolmaydimi, mulla. (178)*

4. Suyish, o'ziga yaqin olish semasi.

*M. Qo'chqor. Iye, bu endi hali ko'-o'p uylanasi, deganizmi, taqdir?*

*Suvon. Gapi-da, mulla Qo'chqor, gapi. Xo'sh, vaqt ziqroq, bo'lg'usi kelinni chaqiring. (180)*

5. Jahl semasi.

*M: Olimjon (Toqati toq bo'lib). Qo'chqor aka, bunaqa narsa yaratish oson emas! Olamshumul kashfiyotlar yuz yilda bitta bo'ladi.*

*Qo'chqor. (Bo'sh kelmay). Ming yilda bittta bo'lsa ham qoyil qilib qo'yoish kerak-da, mulla. (195)*

Demak, ko'rinadiki, undalmalarni faqat bir umumiy sema atrofida undash, yoki murajjaat semasi deb qaramasdan, ularni ma'nosiga ko'ra bir nechta guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bular ichida undash

semasi hammasida takrorlanib keladigan birlashtiruvchi semadir. Qolgan semalar farqlanuvchi semalar hisoblanadi.

Soʻzlovchining undash munosabatini ifodalovchi sintaktik shakl va bu undalma sanaladi.

«Oʻzbek tili grammatikasi»da undalmalar semantik va uslubiy xususiyatlariga koʻra uch guruhga boʻlinadi.<sup>27</sup> Nutq qaratilgan obyektни ifodalaydi. Bu obyekt uch xil boʻladi:

- a) shaxs;
- b) shaxs boʻlmagan jonli predmet;
- c) jonsiz predmet.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Sharof Boshbekov dramalaridagi undalmalar ham xilma-xil maʼno va uslubiy qirralarga ega ekanligining guvohi boʻlamiz.

1. Shaxsni ifodalagan undalmalar kishining nomi, ismi, sharifi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, jinsi, kasbi, unvoni va boshqa xususiyatlarini koʻrsatadi. Sharof Boshbekov dramalarida quyidagi shaxsga xos xususiyatlar ifodalanadi.

- a) shaxsning nomi, ismi, shariafiga murojaat qilinadi.

*M: Samar. Qanaqasiga... ketyapsiz?*

*Mohinisa. Mana faqat kiyimlarimni oldim. Bu yogʻi sizga. Hoʻp, agar koʻrisholmasak, xayr, **Samar aka.** (Narsalarini Samarga tutqazib, chiqib ketadi). (263)*

- b) qarindoshlik, jinsi, yoshi, kasbi va unvoniga qaratiladi.

*M: Pirmat. Hali ketmoqchi boʻluvdim. Endi oʻsha sanitarini koʻrmasdan ketmayman. Qachon kelsayam, mayli, kutaman. Odamlar hajgayam borishadiku... Qulmat, xufton boʻlib qoldi, tahoratga suv tayyorla, **bolam.** (161)*

*Qumri. Boʻla qol, bolam. (sumkani olib, oʻgʻlini yetaklaganacha). Yaxshi-yomon gap oʻtgan boʻlsa, xafa boʻlmang, **dadasi.** (167)*

---

<sup>27</sup> Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. 11т.

Yozuvchi dramalaridan to‘plagan misollarimizni kuzatar ekanmiz, ularda qarindoshlik va jins bilan bog‘liq undalmalar juda ko‘pligini guvohi bo‘lamiz. Ammo kishi kasb va unvoniga qaratilgan undalmalar kam qo‘llanilganligining guvohi bo‘ldik. Faqat ba‘zi o‘rinlardagina kasbga murojaat qilinadi.

*M: Barnoyev. Savol: chiroqni kim o‘chirdi? (Bir oz kutib javob bo‘lmagach) A-ha, og‘zimda talqon, Barnoyev hayron, denglar?*

*I student. Yo‘q, **domla**, biz ham hayron.*

*Otajon. Kimdir atay qilyapti, **domla**. Probkaga qalinroq sim o‘rab qo‘ysam ham bo‘ladi-yu, podstansiya chatoq-tashlab yuboradi. (263)*

Demak, yozuvchi o‘z asarlarida shaxsga murojaat qilishda personaj nutqining o‘ziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea va hodisalardan kelib chiqib undalmalardan keng foydalanadi

Shaxsni ifodalovchi undalmalar Sharof Boshbekov dramalarida o‘ziga xos murojaat shakllariga ega. Asosan, quyidagi so‘zlar keng qo‘llanadi.

*M: Sharofat (devor osha mo‘ralab.) Labbay?*

*Qo‘chqor. A? Ha... Bozorvoy keldimi, **kelin**?*

*Sharofat. Keluvdilar, ikki qoipgina savzi ko‘tarib yana bozorga ketdilar. Nima edi? (180)*

*Qo‘chqor. Hozir, **mulla**... (Choyni olib kelib) Qani, dasturxonga qarasinlar, **mulla** (Kerilibroq). Buyuraymi, “jiz-biz” qivorsinmi. (181)*

*Samar. Qiziq bo‘ldi-ku... I, shoshma! Qayoqqa ketadi? Nega ketadi? Bu ketib qolsa, **Otam** nima bo‘ladi? **Otam! Otaginam!** Uying kuyib qoladigan bo‘ldi, **otam**. (196)*

Demak, bundan shu narsa anglashiladiki, yozuvchi o‘z asarlarida shaxsga murojaatning xalq og‘zaki nutqiga xos shakllaridan juda keng foydalangan. Bu esa asar tilining xalq tiliga yaqinligini, ta‘sirchan ekanligini ko‘rsatadi. Undalmalar ishtirok etgan sodda gap faqat shakl jihatdan emas, balki mazmun,

ya'ni murojaatning tarixiy shakllari bilan boyib borganligidan dalolat beradi. Bu faqat shaxsga nisbatan qo'llanilgan undalmalar misolidagi holatdir.

Dramatik turda muallif epik turdagi kabi voqea-hodisalarga erkin aralasha olmaydi, ayni shu xususiyatiga ko'ra, dramaning bir butun asar sifatida o'qilishida remarkaning o'rni katta.<sup>28</sup>

Ayni shu fikrga tayangan holda, biz ushbu ishimizda remarkalarni uslubiy-semantik jihatdan ham tasniflashga harakat qildik.

Remarka-fransuzcha izoh, ya'ni muallif izohi degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, remarkada asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko'rinishi, qalb kechinmalari, so'zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit, payt-o'rin kabilar izohlanadi.<sup>29</sup>

Dramalarda bosh qahramonning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o'rni nihoyatda katta. Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan remarkalarni uslubiy-semantik jihatdan quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin.

### **I.O'rin-joy ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

Bunday remarkalar, asosan, bosh qahramonning yashash joyi, sharoiti, uning xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

*M: Qishloq. Oddiy kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastdakkina ko'cha eshigi, oldinroqda yog'och karovot. Eshik, deraza romlarning yarmi bo'yalgan, qolganining rangi o'chib ketgan, yog'och karovotning oyog'i yo'q, piyolalarning labi o'chgan yoki chegalangan...(3)*

Yuqorida keltirilgan remarkadan bosh qahramonning yashash sharoiti, uy jihozlarining ko'rimsizligi, tun-u kun mehnat qilsa-da, yaxshi yashamaganligini bilib olamiz. Sahnaga hali chiqib ulgurmagan qahramon haqida kitobxon va

---

<sup>28</sup> Жалилов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Т., 1984.

<sup>29</sup> Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т., 1983.



tomoshabinga dastlabki ma'lumot beriladi. Kitobxon remarka yordamida tasvirlangan sahna ko'rinishidan bosh qahramon haqida tasavvurga ega bo'ladi. Eshik, romlarning to'liq bo'yalmaganligidan uning xafsalasizligini, yamoq tushgan piyola, uchgan choynaklardan nochorligini anglab oladi.

Remarkalarning bunday turi, asosan, yoyiq va yig'iq atov gap holida shakllanadi va ularda voqealar sodir bo'ladigan joyning umumiy tasviri beriladi. Remarkaning bu turi ko'pincha drama boshida beriladi.

*M: SHahardagi ko'p qavatli uylarning biridagi xona. Uy jihozlarining aksariyati kitoblar.(122)*

## **II.Harakat ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

Bunday remarkalarda harakat birinchi o'rinda turadi. Ma'lumki, dramada muallif drama qahramonlarining hatti-harakatlariga aralash olmaydi, qahramonning hatti-harakati muallif remarkasida beriladi.

*M: SHu ko'yi uxlab qolgan bo'lsa kerak, avval sekin chiranib qo'yadi, so'ng ko'zini ochmay esnaydi. Oyoq qo'li o'ziga bo'ysunmayotganidan xayron bo'lib, bir-ikki chiranib ko'radi.(3)*

Harakat ma'nosini bildiruvchi remarkalar ham o'z ichida mazmuniy jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Yumush ma'nosini bildiruvchi harakat remarkalari:

*M: ...(Birpas eriga ta'na aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarini yig'ishtira boshlaydi.) (3)*

2.Ruhiy holat ma'nosini ifodalaydigan harakat remarkalari:

*M: ...(Atrofga chorasiz alanglaydi.) (5)*

3.Ishora ma'nosini ifogalaydigan harakat remarkalari:

*M: Sekin-e!(Radiolaga ishora qiladi.) (138)*

4.Ko'rish ma'nosini ifodalaydigan harakat remarkalari:

*M: Endi, Olimtoy... (Alomatga qarab qo'yadi.)*

5. Nutqiy faoliyat ma'nosini ifodalaydigan harakat remarkalari:

*M: ... (Alam bilan qandaydir kuyni **xirgoyi qiladi**, so'ng qo'shni hovli tomonga **qichqiradi**) (6)*

6. Sezgi ma'nosini ifodalaydigan harakat remarkalari:

*M: ...Hm (Tesha ish bilan bo'lib uning ma'yus, shu bilan birga, tashvishli nigohini **payqamaydi.**) (211)*

7. Tafakkur ma'nosini bildiruvchi harakat remarkalari:

*M: Qumri. (Biroz **o'ylanib turadi.**) (6)*

### **III. Holat ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

Bunday remarkalar ham dramatik asarda ko'p qo'llanilib, obrazning to'laqonli talqini uchun xizmat qiladi.

*M: Peshayvon ustuniga **Qo'chqor arqon bilan chandib tashlangan, ust-boshi, aft-angoriga qarab bo'lmaydi.** (3)*

Holat remarkalarini ham mazmuniy jihatdan quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Qahramon tashqi qiyofasini, ko'rinishini ifodalovchi holat remarkalari.

*M: Pirmat-oppoq soqolli, oq sallali, egnida chopon, oyog'ida maxsikavush, Qulmat esa ancha "zamonaviy" kiyingan, oyog'ida xrom etik, yelkasida ikki ko'zi to'la xurjun. (122)*

2. Qahramon ruhiy holatini ifodalovchi holat remarkalari.

*M: Qumri. (yig'lamoqdan beri bo'lib) Bu sho'xliklaringiz mana bu yerimga keldi. (3)*

3. Qahramon hatti-harakatini ifodalovchi holat remarkalari.

*M: Olim (jim deganday qoshiq bilan kosani chertib). Tinchlaninglar. (139)*

Bu xil remarkalarda, asosan, muallifning drama qahramoniga ko'rsatmasi o'z aksini topadi va bunday remarkalar harakat ma'nosini bildiruvchi fe'llar bilan ifodalanadi.

Umuman, holat ma'nosini bildiruvchi remarkalar dramaning to'laqonli bir butun asar holida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **IV. Yo'nalish ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

*M: Pirmat. Kattaroq idishga quy, bedanaga suv beryapsanmi? (Nozikka)*  
*Nima, bu xonadonda kosa-posa degan narsalar bo'lmaydimi? (140)*

yoki

*Qo'chqor (uy tomonga). Ho'-o', tirikmisan? (6)*

Bunday remarkalar, ko'pincha, jo'nalish kelishigidagi yoki yo'nalish ma'nosini ifodalaydigan ko'makchilar bilan birga qo'llangan otlar va o'rin ravishlari bilan ifodalanadi va ularda yuqorida ta'kidlaganimizdek, muallifning drama qahramonlariga ko'rsatmasi ifodalanadi.

#### **V. Makon ma'nosini bildiradigan remarkalar.**

*M: Qumri (ichkaridan). Ha, bor edi. (8)*

Bunday remarkalar, asosan, makon ma'nosini bildiruvchi otlar yoki o'rin ravishlari bilan ifodalanadi. Ularning o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi remarkalardan farqli tomoni shundaki, bunday remarkalar to'liqsiz gap holida shakllanadi. O'rin-joy ma'nosini bildiruvchi remarkalar esa, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asosan, atov gap holida shakllanadi va ularda voqea-hodisalar sodir bo'ladigan joyning umumiy tasviri beriladi.

#### **VI. Payt ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

Dramatik asarda payt ma'nosini bildiruvchi remarkalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday remarkalar dramatik qahramonning sahnada qanday harakat qilishidan tortib qay paytda qanday harakat qilishini ko'rsatib beradi. Bu xil remarkalar, asosan, payt ma'nosini bildiruvchi ravishdosh formalari va ko'makchilar bilan ifodalanadi.

*M: Qo'chqor. Ha, endi gap-da...(Biroz sukutdan so'ng) Obbo, Alomatxon-ey, shunaqa deng? (10)*

*yoki*

*Olim. O'rtoqlar, bir minut, bir minut! (Hamma tinchlangach) Endi so'z navbati Rahmatillaning eng yaqin do'sti, sadoqatli umr yo'ldoshi Nozikxonga beriladi. (144)*

## **VII. Maqsad ma'nosini bildiruvchi remarkalar.**

Remarkalarning bu turi ham dramatik asarlarda ko'p uchraydi va ularda drama qahramonlari hatti-harakatlari nima maqsadda sodir etilayotgani bayon qilinadi. Bu xil remarkalarning ham dramatik asardagi o'rni juda katta bo'lib, ular asarning badiiy asar sifatida to'la shakllanishida xizmat qiladi.

*M: Olimjon. (Saltanatning diqqatini o'ziga jalb qilish uchun). Kennoyi, qo'ying endi. (13)*

Ko'rinadiki, remarkalarsiz dramatik asarni tasavvur qilish mumkin emas. Qahramon ruhiyatini ochishda, harakat va holatlarni tasvirlab berishda remarkalarning ahamiyati katta. Ular dramatik asarda dramatismni kuchaytirishga xizmat qiladi.

## Bob bo'yicha qisqa xulosa

Guvohi bo'lganimizdek, Sharof Boshbekovning badiiy matn yaratishidagi mahorati, ayniqsa, morfologik vositalardan ham ustalik bilan foydalangani va ularni o'z o'rnida o'rinli qo'llab, har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon eta olgani bilan xarakterlanadi.

Sharof Boshbekov dramalarida ham ba'zan subyektiv baho shakllari, ba'zan kichraytirish-erkalash shakllari deb yuritiladigan ot so'z turkumi doirasida emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi –cha, - choq (chak), -jon, -xon, -oy, -gina singari qo'shimchalar yordamida hosil qilingan shakllarni uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar bilan faqatgina kichraytirish-erkalash ma'nolari emas, balki shu bilan birgalikda ijobiy va salbiy munosabat, suyish, mensimaslik, tahqirlash, hurmatlash, e'zozlash kabi ma'nolar yuzaga keladi.

Dramalarda otning egalik shakllarini matnda maxsus qo'llash bilan ham ekspressiv-emotsionallik ifodalanganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, shaxs-son ma'nosiga ega bo'lgan til birliklarini o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llash orqali ekspressivlik ta'minlanganini guvohi bo'lamiz. Dramada mag'rurlanish, kesatish, kamsitish, hurmatlash, hurmatsizlik kabi ijobiy yoki salbiy ma'nolarni hosil qilishda shaxs-son formalarini bir-birining o'rnida almashtirib qo'llanilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida ham sonlar bir qancha uslubiy-semantik ma'nolarni ifodalagan o'rinlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Xususan, dramalarda *bir* soni miqdor ma'nosini emas, ma'noni kuchaytirish, noaniqlik, ayirish-chegaralash kabi qator uslubiy ma'nolarni ifodalagan.

Ma'lumki, badiiy matnda olmoshlar turli emtsional-ekspressiv ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Dramalarda bu xususiyat, ayniqsa, kishilik va so'roq olmoshlarining qo'llanilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayrim o'rinlarda kishilik olmoshlarining bir-biri o'rnida almashtirib qo'llash orqali personajlar nutqida bir qator uslubiy ma'nolar hosil qilingan bo'lsa, so'roq olmoshlarini har bir gap tarkibida takrorlash orqali gapdan ifodalangan so'roq mazmuni kuchaytirilgan.

Misollardan guvohi bo'ldikki, yozuvchi dramalarda faqat olmoshlardan iborat gaplarni ham qo'llaydi va bu bilan badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Sharof Boshbekov dramalarida yordamchi so'z turkumlari ham bir qator uslubiy vazifalarni bajargan. Ayniqsa, bu xususiyat yuklamalarning qo'llanilishida alohida namoyon bo'lgan. Dramalarda so'roq va ta'kid ma'nosini ifodalovchi yuklamalar faol qo'llanilgan bo'lib, bu yuklamalar o'zi ifodalaydigan ma'nodan tashqari ko'plab uslubiy-semantik ma'nolarni ifodalagan o'rinlarni ko'plab kuzatishimiz mumkin.

Sharof Boshbekov dramalarini tahlil qilganimizda undalmalarning o'z ichida turli xil ma'nolarda qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Xususan, muallif birgina "mulla" so'zini undalmali gaplar tarkibida qo'llab, turli xil uslubiy ma'nolarni yuzaga chiqargan. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, undalmalarni faqat bir umumiy sema atrofida undash, yoki murajjat semasi deb qaramasdan, ularni ma'nosiga ko'ra bir nechta guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bular ichida undash semasi hammasida takrorlanib keladigan birlashtiruvchi semadir. Qolgan semalar farqlanuvchi semalar hisoblanadi.

"O'zbek tili grammatikasi"da undalmalar semantik va uslubiy xususiyatlariga ko'ra, ya'ni nutq qaratilgan obyektga ko'ra uch guruhga bo'linadi.

- a) shaxs;
- b) shaxs bo'lmagan jonli predmet;
- c) jonsiz predmet.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Sharof Boshbekov dramalaridagi undalmalar ham xilma-xil ma'no va uslubiy qirralarga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Dramalarda, asosan, shaxsni ifodalovchi undalmalar faol qo'llanilgan bo'lib, ularning aksariyati qarindoshlik va jins bilan bog'liq bo'lgan undalmalar hisoblanadi. Kasb va unvon nomini bildiruvchi undalmalar dramalarning ayrim o'rinlarida kam miqdorda qo'llanilgan. Bundan shu narsa anglashiladiki, yozuvchi o'z asarlarida shaxsga murajjatning xalq og'zaki nutqiga xos

shakllaridan juda keng foydalangan. Bu esa asar tilining xalq tiliga yaqinligini, ta'sirchan ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, dramalarda bosh qahramonning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o'рни nihoyatda katta. Shu jihatga tayangan holda, Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan remarkalarni uslubiy-semantik jihatdan o'rin, payt; harakat, holat; makon, zamon; sabab, maqsad kabi bir necha guruhlarga bo'lib tasnif qilishga harakat qildik. Bundan shu narsa anglashiladiki, qahramon ruhiyatini ochishda, harakat va holatlarni tasvirlab berishda remarkalarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular dramatik asarda dramatismni kuchaytirishga xizmat qiladi.

## Umumiy xulosalar

O`zbek adiblari, milliy adabiyotimiz namoyondalari haqida gapirganda, tabiiyki, xalqimiz ma`naviyatining, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo`lgan, kerak bo`lsa, uning o`zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an`analarga ega adabiyotimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og`ir va mas`uliyatli mehnati barchamizning ko`z oldimizdan o`tadi. Shu o`rinda O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining “Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor” nomli nutqlarida so`zlagan bir fikrlari yodga tushadi:

“Biz shoir deganda, avvalo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o`z xalqi uchun nafaqat noyob iste`dodi, ayni paytda butun hayotini bag`ishlagan buyuk va mo`tabar insonlarni tasavvur etamiz”,<sup>30</sup> - deb aytgan gaplarida ulkan ma`no bor.

Darhaqiqat, o`zbek xalqining eng sevimli adiblaridan biri sanalgan Sharof Boshbekov ham el ardoqlagan, o`zbek xalqining chin ma`nodagi eng sevimli farzandidir. U ham o`z hayotini, butun borlig`ini, quvonch-u shodligini, dard-u hasratini adabiyotga bag`ishlagan yozuvchilardan sanaladi. Uning sahna asarlari kirib bormagan, yoxud oynai jahon orqali eshitmagan, ko`rmagan insonning o`zi bo`lmasa kerak. Chunki uning asarlarining tili shunchalik sodda, xalqona ruhda, o`zbekning oddiygina hayotidan olinganki, ana shu jihatlari barcha kitobxonni o`ziga rom etib olgan. Uning barcha dramalari xalqning eng sevimli asarlariga aylanib ulgurgan. Sharof Boshbekov dramalarining til xususiyatlarini o`rganish esa bugungi zamonning tabiiy zaruriyatlardan biri sanalishi hech kimga sir emas. Biz mana shunday xayrli ishning kichik bir boshlovchisi sifatida adibning dramalarini tahlilga tortdik va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qildik.

Dramalarni tahlil qilish jarayonida yozuvchi tilining naqadar betakrorligini, tilning har qanday vositalaridan mahorat bilan foydalanganini, har bir qahramon

---

<sup>30</sup> Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2008. 173-b.



xarakterini, tilini ko`rsatib berishda bir-birini takrorlamagan holda o`ziga xos individuallik bilan yondashilganini ko`rib o`tdik.

Sharof Boshbekov dramalarida emotsional-ekspressivlik yuqori bo`lib, bu holat adib asarlarining o`quvchi uchun qiziqarli, jonli tarzda namoyon bo`lishini ta`minlashga xizmat qilgan. Yozuvchining ijod mahsuli bo`lgan dramalarda til birliklaridan o`rinli foydalanganligini ko`rish mumkin. Ekspressivlikni hosil qilishda boshqa til birliklari singari nutq tovushlarining ham o`z o`rni bo`lib, ular vositasida bir qancha ma`nolar ifodalash mumkin ekanligini ko`rsatib bera olgan.

Sharof Boshbekov ijodida ham so`z qo`llanishining o`ziga xos fonetik jihatlari bo`lib, tasvir mazmuni va jarayoniga xos bunday xususiyatlar yozuvchi ijodidagi individuallikni ta`minlashga xizmat qilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida fonetik usul bilan ekspressivlikni hosil qilish yuqori bo`lib, yozuvchi quyidagi usullardan ko`proq foydalangan:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (dinamik urg`u);
- 2) unlini cho`zish (kvantitativ urg`u);
- 3) so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish.

Yozuvchi dramalarida unlining cho`zilishi xitob, ta`kid, kesatish, xursandchilik, xayratlanish, buyruq, taajjub, taklif, voqelikka norozilik, harakatning davomiyligi kabi konnotativ ma`nolarni ifodalab kelgan bo`lsa, so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish bilan bog`liq holatlarda qahramon nutqini individuallashtirish va ifodani jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadi ko`zlanganini ko`ramiz. So`zlarni buzib talaffuz qilish natijasida o`sha so`zlayotgan drama qahramonining xarakteri to`laligicha kitobxonga tushunarli bo`libgina qolmay, badiiy asar ta`sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Sharof Boshbekov dramalarining leksik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, adib dramalarining badiiyatini ochib berishda noadabiy qatlamga oid birliklarning o`rni katta ekanligini guvohi bo`ldik. Dramalarda dialektizmlardan asar tilining jozibadorligi, qahramonlar nutqining o`ziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning qaysi hududda kechayotganligi haqida ma`lumot berish maqsadida

qo'llanilgan. Dramalarda, shuningdek, kasb-hunarga oid leksemalar, ya'ni professionalizmlar ham faol qo'llanilgan bo'lib, ular natijasida tasvir obyekti yanada kuchliroq namoyon bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Ular orqali kitobxon drama qahramoning qaysi soha vakili ekanligini favqulodda tez anglab oladi. Dramalarda qo'llanilgan noadabiy qatlamga oid leksemalar badiiy asarning jozibadorligini ta'minlash bilan birgalikda, muallifning so'z qo'llash mahoratidagi o'ziga xoslikni ham ochib bergan.

Ma'lumki, Sharof Boshbekov o'zining barakali ijodi bilan o'zbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo'shgan hassos ijodkordir. Uning asarlarida o'zbek tilining boyligi, go'zalligi, tunganmas ifoda imkoniyatlari o'zini to'liq namoyon etgan. Buni birgina adib asarlarida qo'llanilgan *baynalminal so'zlar* misolida ham ko'rishimiz mumkin. Muallif dramada asar qahramonlari ruhiy holati, xarakteridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berish uchun ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumiga oid baynalminal leksemalarni "nima?" so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llagan. Bu esa, muallif so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va individualligidan dalolat beradi. Muallif dramada asar qahramonlari ruhiy holati, xarakteridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berish uchun ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumiga oid baynalminal leksemalarni "nima?" so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llaganligining guvohi bo'ldik. Bu esa, muallif so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va individualligining yana bir dalolatidir.

Sharof Boshbekovning badiiy matn yaratishidagi mahorati, ayniqsa, morfologik vositalardan ham ustalik bilan foydalangani va ularni o'z o'rnida o'rinli qo'llab, har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etganligi bilan xarakterlanadi.

Sharof Boshbekov dramalarida ham ba'zan subyektiv baho shakllari, ba'zan kichraytirish-erkalash shakllari deb yuritiladigan ot so'z turkumi doirasida emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi –cha, - choq (chak), -jon, -xon, -oy, -gina singari qo'shimchalar yordamida hosil qilingan shakllarni uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar bilan faqatgina kichraytirish-erkalash ma'nolari emas, balki shu

bilan birgalikda, ijobiy va salbiy munosabat, suyish, mensimaslik, tahqirlash, hurmatlash, e`zozlash kabi ma`nolar yuzaga keladi.

Dramalarda otning egalik shakllarini matnda maxsus qo`llash bilan ham ekspressiv-emotsionallik ifodalanganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, shaxs-son ma`nosiga ega bo`lgan til birliklarini o`z ma`nosidan boshqa ma`noda qo`llash orqali ekspressivlik ta`minlanganini guvohi bo`lamiz. Dramada mag`rurlanish, kesatish, kamsitish, hurmatlash, hurmatsizlik kabi ijobiy yoki salbiy ma`nolarni hosil qilishda shaxs-son formalari bir-birining o`rnida almashinib qo`llanilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida ham sonlar bir qancha uslubiy-semantik ma`nolarni ifodalagan o`rinlarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Xususan, dramalarda *bir* soni miqdor ma`nosini emas, ma`noni kuchaytirish, noaniqlik, ayirish-chegaralash kabi qator uslubiy ma`nolarni ifodalagan.

Ma`lumki, badiiy matnda olmoshlar turli emtsional-ekspressiv ma`nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Dramalarda bu xususiyat, ayniqsa, kishilik va so`roq olmoshlarining qo`llanilishida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ayrim o`rinlarda kishilik olmoshlarining bir-biri o`rnida almashtirib qo`llash orqali personajlar nutqida bir qator uslubiy ma`nolar hosil qilingan bo`lsa, so`roq olmoshlarini har bir gap tarkibida takrorlash orqali gapdan ifodalangan so`roq mazmunini kuchaytirilgan. Misollardan guvohi bo`ldikki, yozuvchi dramalarda faqat olmoshlardan iborat gaplarni ham qo`llaydi va bu bilan badiiy asar ta`sirchanligini ta`minlaydi.

Sharof Boshbekov dramalarida yordamchi so`z turkumlari ham bir qator uslubiy vazifalarni bajargan. Ayniqsa, bu xususiyat yuklamalarning qo`llanilishida alohida namoyon bo`lgan. Dramalarda so`roq va ta`kid ma`nosini ifodalovchi yuklamalar faol qo`llanilgan bo`lib, bu yuklamalar o`zi ifodalaydigan ma`nodan tashqari ko`plab uslubiy-semantik ma`nolarni ifodalagan o`rinlarni kuzatishimiz mumkin.

Ma'lumki, undash munosabati bir nechta semalarni o'z ichiga olgan murakkab butunlik hisoblanadi. Hozirgacha an'anaviy tilshunoslikda undash semasi bir butun holda olinib, ularning ma'nolari parchalab o'rganilgan emas.

Sharof Boshbekov dramalarini tahlil qilganimizda undalmalarning o'z ichida turli xil ma'nolarda qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Xususan, muallif birgina "mulla" so'zini undalmali gaplar tarkibida qo'llab, turli xil uslubiy ma'nolarni yuzaga chiqargan. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, undalmalarni faqat bir umumiy sema atrofida undash, yoki murajjat semasi deb qaramasdan, ularni ma'nosiga ko'ra bir nechta guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bular ichida undash semasi hammasida takrorlanib keladigan birlashtiruvchi semadir. Qolgan semalar farqlanuvchi semalar hisoblanadi.

"O'zbek tili grammatikasi"da undalmalar semantik va uslubiy xususiyatlariga ko'ra, ya'ni nutq qaratilgan obyektga ko'ra uch guruhga bo'linadi.

- a) shaxs;
- b) shaxs bo'lmagan jonli predmet;
- c) jonsiz predmet.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Sharof Boshbekov dramalaridagi undalmalar ham xilma-xil ma'no va uslubiy qirralarga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Dramalarda, asosan, shaxsni ifodalovchi undalmalar faol qo'llanilgan bo'lib, ularning aksariyati qarindoshlik va jins bilan bog'liq bo'lgan undalmalar hisoblanadi. Kasb va unvon nomini bildiruvchi undalmalar dramalarning ayrim o'rinlarida kam miqdorda qo'llanilgan. Bundan shu narsa anglashiladiki, yozuvchi o'z asarlarida shaxsga murojaatning xalq og'zaki nutqiga xos shakllaridan juda keng foydalangan. Bu esa asar tilining xalq tiliga yaqinligini, ta'sirchan ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, dramalarda bosh qahramonning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o'rni nihoyatda katta. Shu jihatga tayangan holda, Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan remarkalarni uslubiy-semantik jihatdan o'rin,

payt; harakat, holat; makon, zamon; sabab, maqsad kabi bir necha guruhlarga bo'lib tasnif qilishga harakat qildik. Bundan shu narsa anglashiladiki, qahramon ruhiyatini ochishda, harakat va holatlarni tasvirlab berishda remarkalarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular dramatik asarda dramatismni kuchaytirishga xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
3. Abdullayev A. O`zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983.
4. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o`rni // O`zbek tili va adabiyoti, 2009. № 4, 79-82 betlar.
5. Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo`ldi? –Toshkent: Ma`naviyat, 1989.
6. Haydarov A. Konnotativ ma`noning nutqda voqelanishi // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010.
7. Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008.
8. Iskandarova Sh. Leksik-semantik sistema talqinlari // O`zbek tili va adabiyoti, 2009. 2-son, 49-bet.
9. Jalolov B. O`zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. –Toshkent: Fan, 1984.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Toshkent: Talqin, 2005.
11. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. -Samarqand, 1994.
12. Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. -Тошкент. 1997.
13. Ne`matov H., Rasulov R. O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O`qituvchi, 1995.
14. Qilichev E. Intonatsiya haqida mulohazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 2001 yil, 1-son. – 63-65-b.

15. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
16. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006.
17. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. 2003 yil, 2-son. –84- 86 betlar.
18. Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. № 5, - 77-80-betlar.
19. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
20. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'zbekiston, 1992.
21. Umarqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan 1990.
22. O`rinboyev B., Qo`ng`urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T., 1990.
23. Xotamov N, Sarimsoqov B. adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –Toshkent, 1983.
24. Xudoyqulova Sh. E.Vohidov she'riyatida dialektizmlar. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to`plami. -№2. -T.:TDPU, 2008.
25. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshken: Fan, 1996.
26. Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
27. Шадиева Д. Мухаммад Юсуф шеърляти лингвопозетикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O`qituvchi, 1980.

29. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

30. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т. 1987.